

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqa  
boshlagan

2025-yil 14-fevral  
№7 (3121)

BU OLAM ARO AJAB ALAMLAR KO'RДUM,

OLAM ELIDIN TURFA  
SITAMLAR  
**KO'RДUM,**

HAR KIM BU "VAQOYE"NI O'QR,  
**BILGAYKIM,**



NE RANJ-U

NE MEHNAT-U

NE G'AMLAR KO'RДUM.

IJTIMOY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv\_vatanparvar\_uz



vatanparvar-bt@mail.uz



facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

# YENGIL MAS ARMIYA



Asrlar davomida buyuk ajdodlarimiz va milliy qahramonlarimizning jasoratini targ'ib qilish, har qanday dushman ustidan g'olib kelishga asoslangan jangovar an'analarimizni keng yoyish bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz faoliyatida muhim va ahamiyatli vazifa bo'lib qolmoqda.

Xalqqa ruhiy ozuqa bera oladigan kuch uning o'z shonli tarixi, folklor asarlari ekanini hisobga olsak, ularni chuqur o'rganish va tahlil qilish orqali unutilib borayotgan **jangovar ruh va an'analarini** yanada jonlantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodining shunday nodir namunalari borki, ularda armiyamizning tarixiy qiyofasini, turkiy jangchilarimizning so'nmas shijoatini, ayovsiz kurashlarda orttirilgan tajriba va mahorat namunalarini ko'rish mumkin.

## "OQSHOM YURAR SHABGIR TORTIB..."

Xalq dostonlarida o'tmishda dushmanga kutilmaganda zarba berib, uni vahimaga soluvchi maxsus kuch hisoblangan "shabgir"lar haqida qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Yovqur shabgirlar asosan tunda, qo'qqisidan hujumga o'tib dushmanni yakson qilgan. Ular odatda o'zini sezdirmasdan, xufiyona harakat qilgan. **"Alpomish" dostonida bu haqda shunday deyiladi:**

*Bedovlarga qamchi chatib,  
Oqshom yurar shabgir tortib,  
Jo'nadi qirq ikki sardor,  
Har qaysi misli ajdaho.*

**Dostonlarda uchraydigan yana bir taktik usul – bu kam sonli qo'shinni dushmanga ko'p ko'rsatish hiylasi.**

"Alibek bilan Bolibek" dostonida tasvirlanishicha, shahzodaning qo'shini son jihatidan oz bo'lsa-da, ular tog'da quyuq va ulkan chang hosil qilib, dushmanga qo'rquv soladi. **Natijada dushman qo'shini orasida vahima va sarosima uyg'onadi:**

*O'zbek lashkarining bari bo'ridir,  
Maydonga kirganda ernoq eridir.  
Endi tanang suvsiz cho'lda chiriydi,  
Bizing qo'shin bevaqt kelgan o'xshaydi.*

## TARIXIY MANBALARDA

Sohibqiron Amir Temur ham shu usuldan foydalanim, lashkari sonini bo'rttirib ko'rsatish uchun tunda bir qancha yerda gulxan, mash'ala yoqtirgani, bu usul "Arg'ay o't" (mo'g'ulcha arg'a - aldash, turkcha - o't, olov) deb nomlanishi keltirib o'tiladi.

Shuningdek, dostonlarda razvedka va turli hiylakor hujumlarni ifodalovchi **chopqun, chopovul, turktoz, tatovul, ilg'or, til, oqinchi, o'qrug, tutg'oq, yezak** kabi atamalar ham tilga olinadi.

## TEZ TIBBIY YORDAM, YO'LXALTA

Bugungi zamonaviy armiyamizda jangchining qurol-yarog'lari asosan



pishiq kamarga tayanih joylashtiriladi. Jangchilarda avvalo o'ziga, so'ngra safdoshiba tezkor tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalari shakllantiriladi. "Yusuf bilan Ahmad" dostonida ham qurollarning beldag'i kamarga osilishi, o'z-o'ziga tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonlari batafsil tasvirlangan:

*"Ashurbek sardor sallasini yirtib, ikki kam o'ttiz yarasiga Paxta qo'yib, dastori bilan mahkam chandiqlab bog'lab, liboslarini ikki egniga tashlab, ustidan sovutini bosib, qilichini beliga bog'lab, qalqonini kiftiga tashlab, nayzaga suyanib egarni ushlab, "oh-voh" deb otiga minib, yigitlariga bosh bo'lib jangga kiradi".*

## BUGUNGU ARMIYAMIZDAGI

yo'lxalta ham jangovar ertaklardan tortib, dostonlargacha qurollanishing bir qismini tashkil etadi. Bu detal "Yusuf bilan Ahmad" dostonida ham uchraydi. Qurshovda qolgan Go'zalshoh Yusuf bilan Ahmad huzuriga elchi yuborish uchun Rustam ismli jangchisini safarga hozirlaydi. Unga yo'l ozig'i sisafida tolqon, turshak, qurut berib, mehtarlariga suv solib, yov-yarog'in shaylab, xuftondan so'ng bir darvozadan chiqarib yuboradi.

## ILK JASORAT UNSURLARI

Zamonaviy armiyamizda askarlikning ilk bosqichidan jangga kirishigacha bo'lgan davrga qadar shakllantirib boriladigan ma'lum bir psixolog bosqichlar bor. Dostonlarda ham qahramonlarning jisman va ma'nani ulg'ayish kategoriyalari, ya'ni ramziy "o'lik"lik holatidan "qayta tilrilishi" gacha bo'lgan davr yotadi.

"Kitobi dada Qo'rqtu'da qahramonning ilk jasorati haqida batafsil keltiriladi. Undagi Bamsi o'n besh yoshida birinchi bor jasorat namoyon qiladi. Vaholanki, kitobda yigitlar o'zlarini ko'rsata olmaguncha ularga hatto ism ham berilmagani xususida ma'lumotlar uchraydi. Alpomish jasoratning ilk namunalarini yetti yoshida, Go'ro'g'li va qirg'iz xalq qahramoni Manas to'qqiz yoshida o'zlarining ilk qahramonligini ko'rsatadi.

"Yusuf bilan Ahmad" jangnomasida yetti yoshda matabga borib, savodi chiqqan bolaning harb ishidan bexabarligi otani nomusga qo'yadi. **Masalan, dostonda Bo'zo'g'lon matabdan kelayotgan ikki xonzodning kimligini bilgach:**

*"Barakalla sizlarga, bularni buncha o'qitibsizlar mulla bo'lsin deb, yo bir masjidga, yo xonaqoga xatib qilamizmi? Bizlar sipohi kishimiz. Shuncha suvrat, xati bo'lsa sipohlarga bo'ladi-da, o'zi xat*

*bitsa, birov xat bitsa o'qisa, sipohning mulla bo'lgani shu bo'ladi. Endi bularga sipohilik o'rgatinglar: ot chopmoq, o'q otmoq, sipar tortmoq, qilich chopmoq, ham nayzadastlik, kirbastlik, surishbozliq, ko'pkaritozlik", deb o'tib ketadi.*

## JANGOVAR SAHNALAR

**JANG**, shubhasiz har qanday dostonning kulminatsion nuqtalarini tashkil etadi. Jangda bosh qahramon qo'shinga ilhom bag'ishlaydi, namuna ko'rsatadi, askarlarning ruhiyatini muvozanatga solib turadi.

Lashkar har doim jangovar ruhni qo'zg'atuvchi kuchli chorlovlardan ilhom olgan. "Alibek bilan Bolibek" dostonida qahramonlarning jangoldi o'z-o'ziga berayotgan dalda va tasallilariga guvoh bo'lamic: "Aslo vahmi-tars ko'ngilga keltirmang, maydonda dushman bilan savashib, talashib o'lsak, bizlarga qanday g'animat. Oxiri odam bor, o'lim bor. Bir kun bo'lmoq, bir kun o'lmoq. Iymoni bilan o'lgan o'lmaydi. Iymoni qul o'lmaydi, degan. Ey yigitlar, aslo g'am yemanglar, o'lamon deb voyim qilmang".

Dostonda yurt taqdiriga xavf soluvchi har qanday holat jangchilarni ilondon qo'zg'atib, sherdai na'ra torttiradi. "Alibek bilan Bolibek" dostonida Mizrobshoh ot o'ynatib, maydonga kiradi va dushman lashkariga qarata shunday xitob qiladi:

*"O' Po'latshohning lashkari, bu kun maydonga men keldim, eshitmadim dema! Qani marding bormi, kel endi, harif keldi!"*

**U bir kishi bilan emas, kerak bo'lsa, butun qo'shin bilan kurashishga tayyorligini ishonch bilan aytadi:**

*Boshimda dubulg'a, belda belligi,  
Ot, anjomning yo'qdır sira kamliyi,  
O'ttiz qo'rqa, kelsin qirqi, elliqi,  
Kim talabgor bo'lsa, kelsin maydonga.*

## QADIMIY ORKESTR VA BAYROQ

Dostonlarda doimiy ravishda uchraydigan ko'rinishlardan yana biri qo'shining jangovar musiqa sadolari ostida yurish qilishidir. Bu holat ritm asosida qo'shining jang maydonidagi harakatini tartibga solib turgan. "Yusuf va Ahmad" dostonida: "Sarboz urishadi karnay nahriga..." manzarasi berilsa, "Alpomish" dostonida: "O'zbaklar ustiga lashkar qiladi, Namoyishga karnay-surnay qo'yadi..." jumlalari jangda musiqiy jangovarlik tempini namoyon qiladi.

"Alibek bilan Bolibek" dostonidagi jang sahnalarida harbiy orkestrning qadimiy ko'rinishlariga oid bo'lgan

**zamzama, dobul, kus, shikori dabilbon** kabi qator terminlar faol q'llanilib, ularning har biri jangda muhim signallar berish vazifasini bajargan.

Bugungi zamonaviy armiyamizda ham bayroq – davlatning ramzi, karnay-surnay esa harbiy orkestr guruhlari ko'rinishida yashab kelmoqda.

## FAXRIY UNVONLAR

"Qutadg'u bilig"da **jangda mardlik va qahramonlik ko'rsatgan askarlar, botirlar** to'nga (yo'lbars), to'nga alp (shavkatli bahodir), so'kman (dushman safini yoruvchi) singari unvonlar bilan sharaflangani qayd etiladi. Ko'k turk xoqonligida navqiron, yosh jangchilardan tuzilgan qo'shin O'g'lon termini bilan atilib, ularning soni yetti-o'n ming atrofida bo'lgan. **Har bir jangching jismoniy yetukligi va jangovar salohiyati** individual tarzda baholanib, bahodir, mard, pahlavon askarlarga **alp, alpag'u** unvonlari berilgan. Hatto mohir o'q otuvchi, ya'ni menganlar ham alp unvoniga sazovor bo'lgan.

Dostonlarda jazoyil, isfahon qilichi, po'lat qalqon, gulgun yoluli nayza kabi qurol-yarog' turlari, "kirovka" (sovut), "choroyna", "buvunchoq" – ya'ni mustahkam kamar, shuningdek, "jeba" deb ataluvchi qalqon, "tabar" deb nomlangan yarim doira shaklidagi boltasimon yarog', javshan (simdan to'qilgan sovut) kabi vositalarni ham ko'plab o'rnlarda uchratish mumkin.

## JANGOVAR ISM

**QADIMDA** qahramonlarning biror ustub belgisi uning ikkinchi nomi, laqabi sifatida atalib, bu qoida bugungi armiyamiz saflarida ham qisman saqlanib qolgan. Professor Nasimxon Rahmonov qadimgi turklardagi jangovar ismning paydo bo'lishini tadqiq qilar ekan, Yenisey yodgorliklarida jangovar nom tanlash an'anasiga e'tibor qaratadi.

"Ar atim Yash Aq bash man (Mening jangovar ismim Yosh Oq Boshdir). Ar atim Yaruq tigin (Mening jangovar ismim Yaruq tigin)".

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, folklor asarlari xalqning ichida, tilida, yuragida asarlari osha yashab kelmoqda. Biz unga qancha yaqinlashsak shunchalik kuchli bo'lamic. **Bu kuch va jasorat nafaqat milliy armiyamiz uchun,** balki yurt himoyasini o'z bo'yniga olgan har birimiz uchun suv va havodek zarurdir.

**Kapitan Bobur ELMURODOV,**  
"Vatanparvar"

Harbiy san'at

# XORIJIV BIR O'QNI OTGUNCHA, TURONLIK O'NTA O'QNI NISHONIGA URADI

VIII asr boshlarida Arab xalifaligi qo'shinlari Turonning asosiy shaharlarini egalladi. Biroq ular ushbu yurishlar davomida Turon xalqlarining harbiy mahorati va jang san'ati yuksak ekaniga guvoh bo'ldi.

Turonliklarning harbiy mahoratiga arablar quyidagicha baho bergan: "*Xorijiy bir o'qni otguncha, turonlik o'nta o'qni nishoniga uradi*", "*Turonlikning orqaga chekinishi o'ldurguvchi zahar kabitir, chunki oldinga qanday aniq mahorat bilan o'q otsa, orqaga ham xuddi shunday o'q ota oladi*". Shu sababli ham Arab xalifaligi Turonni bosib olish jarayonida bu yerdagi jangchilarni harbiy ishlarga va xalifalarni qo'riqlash xizmatiga jalg etishga harakat qilgan.

VII asrning 80-yillarida Ubaydulloh ibn Ziyod tomonidan ikki ming kamonchini Buxorodan o'zi bilan Basraga olib ketishidan boshlangan bu jarayon keyinchalik abbosiy sulolasini xalifalari Ma'mun (813-833) va Mutasim (833-842) davrida ham davom etgan.

Arab xalifaligi markazida harbiy xizmatga yollangan turonliklar Bag'dodning markazida, xalifa saroyi yaqiniga joylashtirilgan. Harbiy mahorati yuksak bo'lgan bu jangchilar oddiy askarlikdan tortib qo'mondon va vazir darajasigacha ko'tarilgan.

Turon xalqlarining harbiy salohiyati va mahoratini ko'rigan arablar bu haqda o'zining asarlarida ham yozib qoldirgan. Hozircha Turon xalqlarining harbiy mahorati bo'yicha arab tilida yozilgan ilk asar Abu Usmon Amr ibn Bahr Johiz qalamiga mansub hisoblanadi. Johiz 777-yili tug'ilgan. U

xalifalik saroyiga 816-yilda xalifa Ma'munning da'vati bilan kelgan. Johiz Turondan kelgan askarlar va lashkarboshilar bilan yaqindan tanishadi, ularning harbiy salohiyatiga shaxsan guvoh bo'ladi. Johiz xalifa Mutasim davrida turonlik jangchilarning mahoratiga oid "Fazoil al-atrok" ("Turkiy xalqlarning fazilatlari") nomli risolasini yozgan. Shuningdek, Johiz tomonidan Turon xoqonlari avlodidan bo'lgan Fath ibn Xoqonga atab "Manoqib jund al-xilafa" ("Xalifalik askarlarining maqtovga loyiq sifatlari") risolasi ham yozilgan. Johizning mazkur ikki risolasi ham vazir Fath ibn Xoqonga taqdim etilgan.

**Johizning "Fazoil al-atrok"** ("Turkiy xalqlarning fazilatlari") nomli asarida **Turon xalqlarining harbiy mahoratiga doir quyidagi jihatlar tilga olinadi:**

- harbiy boshqaruvi usuli;
- qurol-yarog'lari;
- urush mahorati.

Kitobning avvalida muallif hech kimni ortiqcha maqtamaganini yoki hech bir xalqni yomonlash niyati bo'limganini ochiq aytib, o'zi guvoh bo'lgan yoki davlat amaldorlaridan eshitgan ma'lumotlarni asarida keltirganini ta'kidlaydi.

"Fazoil al-atrok" risolasi xalifa Ma'munning lashkarboshisi Humayd ibn Abdullohning turkiylar va xorijiylar borasida berilgan savolga javobi bilan boshlangan. Humaydning turkiylar haqida bildirgan fikrlari



bizga VIII-IX asrlardagi Turon xalqlarining harbiy salohiyatini yaqqol namoyon etadi:

**"Xorijiy bir o'qni otguncha, turonlik o'nta o'qni nishoniga uradi",** darhaqiqat Turkiston xalqlarining kamonchilik (*nushshob*) borasida mahorati ming yillar davomida boshqa xalqlarni hayron qoldirib kelgani ma'lum. Buning guvohi bo'lgan arablar shu sababli ham o'z qo'shinlariga ikki ming buxorolik kamonchini qo'shib olishgani manbalarda keltiriladi.

**"Turonlikning orqaga chekinishi o'ldurguvchi zahar kabitir, chunki oldinga qanday aniq mahorat bilan o'q otsa, orqaga ham xuddi shunday o'q ota oladi".** Ko'rinish turibdiki, arablar Turkiston xalqlarining o'qchilikda mohir ekanini bot-bot guvohi bo'lgan, shu sababdan ham arablar orasida turonlikning to'rtta ko'zi bor, ikkisi boshining oldida qolgan ikitiasi esa bo'ynining orqasida degan gap o'sha davrda mayjud bo'lganini Johiz risolasida keltirib o'tadi.

Risolada turonlik harbiylarning qurolyarog'lariidan nayza haqida shunday ma'lumot uchraydi: **"Xorijiyning nayzasi uzun va ichi to'ladir, turonlikning nayzasi esa qisqa va ichi bo'sh bo'lib, ichi bo'sh va qisqa bo'yli nayzalar juda qulay va jangda samaraliroqdir".** Bundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, Turonda VIII-IX asrlarda asosan qisqa bo'yli, ichi bo'sh nayzalardan janglarda

foydalilanigan. Bu esa askar uchun ancha qulay bo'lgan. Shu sababli turonliklar Bag'dod va Samarro kabi poytaxt shaharlarda ham shu turdag'i nayzalardan foydalangan.

Turkiston elatlarining botirligini asarida madh etgan Johiz buni bir jumla orqali shunday ifodalaydi: **Arab qo'shinlarining qalblarini turonliklar kabi qo'rqtigan hech bir xalq yo'q".**

Darhaqiqat, xalifalik qo'shinlari Turon hududini olish uchun juda ko'p qiyinchilikka uchragan, egallangan shaharlar qayta qo'ldan chiqarilgan, ularga qarshi har bir shaharda qo'zg'olonlar alanga olgan.

Shuningdek, muallif o'z asarida Vatanini eng ko'p sevgan va sog'ingan elat bu turkiylar ekanini qayd etadi. Ona Vatanidan uzoqda bo'lgan turonliklar xalifalikda xizmat qilgan xalqlar orasida yurtiga sodiq bo'lgani bizdagi Vatan sevgisi ota-bobolarimizdan meros qolganidan darak beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak hozircha, Turon xalqlarining harbiy mahoratiga doir arab tilida yozilgan ilk asar "Fazoil al-atrok" ("Turkiy elatlarning fazilatlari")da harbiy tariximizga oid bir qator muhim ma'lumotlar o'rinni olgan. Ularni o'rganish bizga o'rta asrlarda Turonda harbiy ish qanday yo'lga qo'yilganini va Turon xalqlarining harbiy mahorati va botirligi yuksak darajada ekanini namoyon etadi.

**Javohir AZIMQULOV,**  
**Tarix instituti kichik ilmiy xodimi**

## Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!

Poytaxtimizning Eski shahar hududida joylashgan “G’alaba bog’i”, “Qahramonlar nomi barhayot” yodgorlik majmualariga har kuni yuzlab hamyurtlarimiz, xorijlik sayyoohlar qadam ranjida qiladi. Ular majmuaga qadam qo’yarkan, unga tutash hududda qad rostlagan, peshtoqiga katta “Led” ekranda tun-u kun harbiylarning jangovar va ma’naviy tayyorgarlik amaliyoti aks etgan videotasvirlar aylanib turadigan oppoq binoga hayrat bilan nigoh tashlaydi.

Ularning aksariyati bu joyga bog’cha, maktab yoshidagi dilbandlari, nevaralarini olib keladi. Bolajonlar esa ekrandagi rolidan ko’z uzolmaydi, qiyqirishib bir-biriga “askarcha salom” ham berib qo’yadi. Binoga tutash katta tirband yo’ldan o’tayotgan avtoulovdagagi yo’lovchilar ham ekranda aylanayotgan rolklarga beixtiyor tikiladi va yuzlarda mammunlik aks etadi, qalbida g’urur tuyadi. To’rt qavatli mazkur bino peshtoqidagi yozuvni o’qimoqqa tutinadi: “O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Ma’naviyat va madaniyat markazi” – kimdir tushunganday bosh irg’ab qo’yadi, kimdir hayrat ila qosh chimiradi.

Rostdan ham, juda qisqa muddatda qad rostlagan mazkur binoda kimlar, nimalar bilan mashg’ul. Albatta, bu savol ko’pchilikni qiziqtirishi tabiiy.

## IKKI BUYUK TAYANCH

Dunyoda turli xavf-xatar va tahdidlar, qurolli mojarolar va to’qnashuvlar kuchayib borayotgan bugungi kunda yoshlарimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilarning milliy va jangovar ruhini yanada oshirish, axloqiy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Muhtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo’mondoni Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: **“Harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma’naviy salohiyat O’zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarus”**.

Shundan kelib chiqib, Mudofaa vazirligi bo’linmalari shaxsisi tarkibining vatanparvarlik sifatlari va jangovar ruhini yanada oshirish, olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, madaniy ishlар hamda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo’nalishlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga ko’maklashish maqsadida **mudofaa vazirining vatanparvarlik targ’iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar hamda yoshlar masalalari bo’yicha maslahatchisi** bo’limi tashkil etildi.



Prezidentimizning shaxsan tashabbuslari va alohida qarori bilan Mudofaa vazirligi tizimida ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-ruhiy ishlarni tizimli tashkil etish, madaniyat va san’at yo’nalishidagi faoliyatni muvofiqlashtirish hamda qo’llab-quvvatlashni takomillashtirish maqsadida **Ma’naviyat va madaniyat departamenti** faoliyati yo’lga qo’yildi.

Bu esa Mudofaa vazirligi tizimida harbiy madaniyat va san’at yo’nalishini takomillashtirish, qo’llab-quvvatlash, ma’naviyat va madaniyat markazlari, harbiy orkestrlar, kutubxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va samarali boshqarishda muhim qadam bo’ldi.

Ma’naviyat va madaniyat departamenti yangi tarkibiy-shtat tuzilishida tashkil etilib, unga

Qurolli Kuchlar Markazi ashula va raqs ansamбли, Alovida ko’rgazmali-namunali harbiy orkestr, Qurolli Kuchlar davlat muzeyi, “Turon” harbiy teatri bo’ysundirildi.

Shuningdek, joylardagi 5 ta garnizonning ma’naviyat va ma’rifat markazlari, 16 ta harbiy orkestr hamda 56 ta harbiy qismnинг madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish ham departament zimmasiga yuklatildi. Ushbu tizim joriy etilishi natijasida oldin tarqoq bo’lgan vazirlikning harbiy madaniyat va san’at bo’linmalari bir maqsad yo’lida bir maskanda birlashtirildi.

Aytish joizki, uzoq yillar davomida harbiy madaniyat va san’at bo’linmalari o’z binosi va zarur infratuzilmaga ega bo’lmagan sharoitda faoliyat yuritib keldi. Tabiiyki, bu holat ular faoliyatining

samaradorligiga ta’sir ko’rsatmay qolmadи.

Prezidentimizning 2023-yil 15-noyabrdagi 365-son qarori hamda 2024-yil 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashi kengaytirilgan yig’ilishida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan bergen muhim topshiriqlari asosida departament binosining qurilishi boshlandi.

Juda qisqa vaqt ichida barcha shart-sharoitga ega zamonaviy departament binosining qurib bitkazilishi va foydalanishga topshirilishi Qurolli Kuchlar tizimida ma’naviy-ma’rifiy hamda madaniy ishlar yo’nalishiga qaratilayotgan yuksak e’tiborning amaliy namunasini bo’ldi.

Zamonaviy arxitektura va yechimlar asosida qad rostlagan mazkur bino 4 qavatdan iborat



# YENGILMASDIR



bo'lib, uning 1- va 2-qavatlarda vazirlikning **Ma'naviyat va madaniyat departamenti** hamda 3-4-qavatlarda **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti** joylashtirildi.

277 o'ringa mo'ljallangan katta anjumanlar zali, teatr aktyorlari va grim xonalari, milliy kontent va maxsus teleloyihalar yaratish maqsadida tashkil etilgan 300 kv metrga ega "Armiya studiyasi" pavilyoni, zamonaviy ovoz yozish studiyasi va telemontaj xonalari, ansamblning vokal, xor, balet va sozandalar guruhlari uchun alohida repetitsiya xonalari eng zamonaviy uskuna va vositalar bilan jihozlandi.

Anjumanlar zali ham universal bo'lib, unda nafaqat anjumanlar yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, balki **jonli ijrodagi konsert dasturlari** va **teatr tomoshalarini namoyish etish, kinozal sifatida foydalanish uchun** ham barcha zarur sharoitlar yaratildi.

Dunyo tajribasi va zamonaviy infratuzilmalar asosida bунyod etilgan ushbu muassasa nafaqat harbiy xizmatchilar, balki butun xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning ma'naviyati, ijodiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, madaniyat va san'atga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish bilan birga madaniy hordiq chiqarishlarini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Ushbu muhtasham binoda vatanparvarlik ruhi aks etgan yangicha formatdagи madaniy-ma'rifiy tadbirlar, adabiy uchrashuvlar, ijodiy kechalar, shoir va adiblarimiz bilan davra suhbatlari, konsert va yuqori saviyada sahnalahtirilgan spektakllar, kinofilmlar taqdimatlari muntazam o'tkazib boriladi.

Fursatdan foydalanib, mazkur muhtasham binoda faoliyat olib borayotgan ijodiy jamoalar faoliyati haqida ham qisqacha to'xtalib o'tsak.

## "TURON" DAVLAT HARBIY TEATRI

**"Turon" davlat harbiy teatri** nafaqat yurtimizda, balki Markaziy Osiyo davlatlari orasida yagona harbiy teatr hisoblandi.

Harbiy teatning boshqalardan ajratib turadigan farqi shuki, unda aktyor nafaqat raqs yoki qo'shiq aytishi, balki soz chalishi, sportchi va harbiy xizmatchi bo'lishi ham talab etiladi. Harbiy teatrda joni ijro qo'shiq, raqs, soz va jismoniy elementlar hamohangligini talab etadi.

Ushbu ma'rifat maskanining ilg'or ish tajribasini o'rganish uchun qo'shni Qozog'iston, Qирг'изистон, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalaridan, shuningdek AQSh, Fransiya, Kanada, Yaponiya, Hindiston davlatlaridan soha mutaxassislari kelib, teatr faoliyati bilan yaqindan tanishgan. Teatr aktyorlari xorijlik hamkasbleri bilan hamkorlikda qator spektakllarda roller ijro etishgan.

Xalqaro miqyosda teatr tomonidan sahnalahtirilgan "**O'lan**" spektakli "**Eng yaxshi musiqali drama**" sifatida butunjahon teatr festivalining gran-prisiga sazovor bo'lgan. Qozog'istonda namoyish etilgan "To'maris" spektaklidagi roli uchun "**Turon**" harbiy teatri aktrisasi, "**Do'stlik**" ordeni sohibi Ilmira Rahimjonova "Eng yaxshi aktrisa" mukofoti bilan taqdirlangan.

Harbiy teatrda o'ziga xos ijodiy maktab yaratilgan bo'lib, iste'dodli aktyor Erkin Bozorov, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi Aysanem Yusupova ana shu muhitda tarbiyalangan umidli yoshlar sirasiga kiradi.

Keyingi 7 yilda teatr jamoasi sahnalahtirigan "Amir Temur", "Bibixonim", "Jaloliddin Manguberdi", "Shikor", "Bardosh", "Men harbiyman" singari harbiy-vatanparvarlik ruhiga yo'g'rilgan o'ndan ortiq spektakllar harbiy qism va muassasalarda, viloyat teatrлarida, olis qishloqlarda o'n ming marta qо'yilgan.

## ASHULA VA RAQS UYG'UNLIGI

Harbiyalarimiz jasorati, yurtga mardonavor va sodiqlik bilan xizmat qilayotgani O'zbekiston Respublikasi **Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblı** repertuarida muntazam tarannum etib kelinmoqda. Ansambl jamoasida davlatimizning yuksak orden va medallari bilan taqdirlangan xonanda, sozanda va raqqosalar talaygina. O'zbekiston xalq artistlari – Rushana Sultanova, Mansur Toshmatov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Marat Hakimov, Ziyoda Madrahimova, Botir Qodirov, Abdurashid Yuldashev, Lola Axmedova, Shuhrat Vohidov, Guli Asalxo'jayeva shular jumlasidan.

Ansambl ixtiyoridagi ovoz yozish studiyasi Ispaniyadan keltirilgan zamonaviy rusumdagи ko'p tarmoqli musiqiy jihozlar bilan ta'minlangan. Shu vaqtga qadar ansambl jamoasi tomonidan yaratilgan **100 dan ortiq** ona Vatanimizni, buyuk ajoddolarimizning qahramonliklarini madh etuvchi, harbiy xizmatchilar, ayniqsa yoshlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan kuy-ko'shiqlar shartnomasi evaziga turli studiyalarda yozilardi. Endilikda bunday ovoragarchilikka chek qо'yildi hamda mablag'lar tejab qolinadigan bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining **xor guruhi** mamlakatimizda yagona hisoblanadi. Jamoa o'zbek xalq qo'shiqlari va jahon klassik asarlarini **akapello** tarzida, ya'ni **cholg'u asboblarisiz ijro etadi**.

Xor guruhining tarkibida taniqli san'at namoyandalari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar faoliyat yuritib, muntazam ravishda yurtimizning olis hududlariga gastrol safarlarida bo'ladi, chekka hududlarda joylashgan mahalla va ovullarda harbiy xizmatchilar, aholi uchun o'z koncert dasturlarini namoyish etib kelmoqda. Jamoa xorijiy ijodiy jamoalar bilan samarali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan bo'lib,

Amerika, Germaniya, Rossiya, Italiya, Turkiya, Qozog'iston va Tojikiston kabi davlatlarda ijodiy safarlarda bo'lib qaytgan.

Ansambl tarkibidagi **balet guruhi** hozirda **14 nafar qiz va 8 nafar** raqqos yigit ijod qilmoqda. Balet guruhining sermahsul mehnati, ijodiy izlanishlari harbiy xizmatchilarimiz va san'at muxlislarining olqishlariga sazovor bo'lmoqda.

Ijodiy guruh 2024-yilda harbiy xizmatchilarning madaniy hordiq chiqarishi hamda aholi va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan **250 dan ortiq** konsert dasturini o'tkazib, **30 dan ortiq** yangi raqs kompozitsiyalarini yaratdi.

Jamoaning ko'plab raqs kompozitsiyalari har yili Italiyada o'tkazilgan butunjahon yoshlar san'at festivali, xalqaro armiya o'yinlarining "**Armiya madaniyati**" ko'rktanlovida yuqori o'rnlarni egallab kelmoqda.

Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi milliy raqs ijrochilar respublika ko'rktanlovida yakka va jamoaviy tarkibda faxrli o'rnlarni egallab kelayotgan ushbu iste'dodli qizlarning bir nafari Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, 4 nafari "Nihol" mukofoti sovrindoridir.

#### AXBOROT-MEDIA: KECHA VA BUGUN

Shu o'rinda binoning 3-4-qavatlarida joylashgan Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentining **Axborot-media va "Vatanparvar" birlashgan tahririysi** boshqarmalari faoliyati xususida ham to'xtalib o'tish lozim.

2016-yilgacha Harbiy studiya sifatida faoliyat yuritgan Axborot-media boshqarmasi Mudofaa vazirligi tizimidagi islohotlarni davlat va nodavlat telekanallarida yoritish bilan birga, sohaga oid hujjatlari va o'quv-uslubiy filmlar hamda videoroliklar tayyorlab kelmoqda. Boshqarma vazirlik tizimidagi barcha o'quv-amaliy mashg'ulot va tadbirlarni yoritishda davlat va nodavlat telekanallariga tayyor telemahsulotlarni yetkazib beradi.

O'tgan davr mobaynida boshqarmaning harbiy jurnalistlari va tasvirchilari ob-havoning har qanday sharoitida harbiylar bilan yelkama-yelka turib, barcha qo'shin turlari hamkorligida o'tkaziladigan katta masshtabdagi murakkab jangovar taktik o'quv-mashg'ulotlarni tasvirga olish va yoritish, to'g'ridan to'g'ri masofadan translyatsiya qilish bo'yicha tajriba va malakalarini boyitdi.

Axborot-media boshqarmasida bir yilda o'rtacha **200 ga yaqin** ko'rsatuv va reportaj, **500 dan ortiq** lavha va xabar, **100 ga yaqin** videorolik, **20 ga yaqin** o'quv va o'quv uslubiy film tayyorlanadi.

Avvallari atigi 5 ta xodim bilan "Vatanparvar" ko'rsatuvining 30 foiz telemahsulotlarini ta'minlab kelgan harbiy studiya 2017-yilda Qurolli Kuchlar media markaziga, 2019-yilda departament tarkibida Axborot-media boshqarmasiga aylantirilib, shtat birliklari kengaytirildi.

O'tgan qisqa vaqt davomida zamonaliv audio va videoapparatlar, telemahsulotlarni montaj qilish uchun kerakli grafstansiyalar bilan ta'minlandi. Davlat va nodavlat telekanallarida tajriba orttigan malakali telejournalist va rejissyorlar, teleoperatorlar, montaj ustalari bilan butlandi.

Bugungi kunda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti tomonidan harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida davlat va nodavlat telekanallari bilan hamkorlikda "**O'zbekiston armiyasi**", "**Vatanparvar**", "**Armiya sporti**", "**Men harbiy bo'laman**" ko'rsatuvlari, "**Ma'naviy poligon**" tok-shousi, informatsion dasturlar uchun xabar va lavhalar, shuningdek yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan, buyuk ajodolar va milliy qahramonlar haqidagi videoroliklar va videokliplar tayyorlanib, efirga uzatilmoqda.

Axborot-media boshqarmasi tarkibida yangidan tashkil etilgan





**"Armiya studiyasi"** pavilyoni Markazi Osiyo davlatlari armiyalari orasida yagona hisoblanadi. Studiyada eng so'nggi rusumdag'i zamonaliv telekamera, audio va videomiksherlar, yoritish qurilmalari, "Led" ekranlar, ko'chma mobil stansiyalar o'rnatilgan.

#### ARMIYA BILAN HAMQADAM, HAMFIKR, HAMNAFAS

"Vatanparvar" birlashgan tahririysi boshqarmasi "**Vatanparvar**" gazetasи hamda "**O'zbekiston armiyasi**"

jurnalini to'liq rangli sahifalarda nashr etish bilan birga, "Vatanparvar" kutubxonasi seriyasida O'zbekiston armiyasidagi islohotlarga bag'ishlangan kitoblarini ham chop etib kelmoqda.



Xususan, 2012–2023-yillarda “Vatanparvar” kutubxonasi” seriyasida “Buyuk ajododdalar meros muqaddas Vatan”, “Oila – hayot gultoji”, “Axborot-psixologik xurujilar va tahidilar”, “Vatan omon bo’lsin”, “Qalqon qo’shig’i”, “Mangu jasorat”, “O’zbekiston armiyasi obyektiv qarhisida”, “Armiya bilan hamqadam, hamfikr, hamnafas” nomli kitoblar jami **14 500 nusxada** chop etilib, Mudofaa vazirligi qo’shinlariga tarqatildi.

Tahririyat o’z nashrlari va veb-sayti orqali mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayatida va jahonda ro’y berayotgan muhim voqealar, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, buyuk ajododdarimizning jang san’ati va merosi, yurtimizda va Qurolli Kuchlarimizda kechayotgan izchil islohotlar haqida turkum maqolalar berib boradi.

Alovida ta’kidlash joizki, “Vatanparvar” birlashgan

tahririyatining 13 nafar xodimi “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan jurnalist” faxriy unvoni, “Jasorat”, “Shuhrat”, “Kelajak bunyodkori” medallari va “Mard o’g’lon” davlat mukofotiga sazovor bo’ldi. Shuningdek, 5 nafar xodim “Oltin qalam” milliy mukofoti uchun xalqaro tanlov g’olib va sovrindorlari safidan o’rin oldi.

Ayni paytda tahririyatda **falsafa doktori** ilmiy darajasiga ega **2 nafar** harbiy xizmatchi faoliyat yuritib kelmoqda.

Tahririyat muharrirlari xizmat safari bilan Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Belgiya, Turkiya, Ozarbayjon mudofaa vazirliklari axborot xizmati hamda harbiy nashrlarida to’plangan tajribalari bilan tanishib qaytgan.

Shuningdek, O’zbekiston jurnalistska va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti bilan talabalarni amaliyotga tayyorlash

borasida muntazam hamkorlikni yo’lga qo’yan. Universitetning harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasi ko’chma filiali ham tahririyat bazasida ochilgan.

#### MA’NAVIY YUKSALISH POLIGONI

Ma’lumki, harbiy terminologiyada **poligon** degan tushuncha bor. Poligonda harbiylar jangovar shaylikni oshirish maqsadida o’quv-amaliy mashg’ulotlar olib boradi. Mazkur majmua esa harbiy xizmatchilar, jumladan, yoshlarimizning ma’naviy-ma’rifiy ijodiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, madaniyat va san’atga bo’lgan qiziqishlarini rag’batlantirishga xizmat qiladi. Shu ma’noda mazkur majmuani Mudofaa vazirligining **ma’naviy yuksalish poligoni**, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Bu muhtasham koshona mard va jasur xalqimiz tarixi, qahramonligini o’zida mujassam etgan “G’alaba bog’i”, “Qahramonlar nomi barhayot”

yodgorlik majmualari va “Shonsharaf” davlat muzeyiga tutash hududda barpo etilgani chuqur ramziy ma’noga ega. Ajoddarimiz, ota-bobolarimiz janglarda ko’rsatgan beqiyos jasorati yurtdoshlarimiz, avvalambor, navqiron yoshlariimizning Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg’usini yanada yuksaltiradi, san’atkor do’starlarimizga yuksak ijodiy ruh, yangi ilhom baxsh etadi.

Ayniqsa, majmuaning Olmazor tumanida, poytaxtimizning Eski shahar qismida ham shunday ma’naviyat maskani, teatr bo’lishi hayotiy zaruriyat edi. Endilikda bu majmua poytaxtimizning Olmazor tumanida ilm-fan, dunyoviy

taraqqiyot mash’alasi yonadigan, nur taratadigan ziyo maskani bo’lib xizmat qiladi. Bir so’z bilan aytganda, nafaqat harbiy bo’linmalar, ayni vaqtida tumandagi mahallalarga, maktablarga, umuman, Eski shaharga yangicha ruh va nafas olib kiradi.

Olmazor tumani ahli, avvalambor yoshlariimiz bu yerga kelib, san’atkorlarimizning iste’dodidan, shoirlarimizning haroratlari ijodidan bahramand bo’ladilar.

Ishonch bilan aytamizki, mazkur ma’naviyat maskani Yangi O’zbekiston Qurolli Kuchlari qiyofasini shakllantirishda “**Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!**” degan ezgu an’anani davom ettirish, ayniqsa ijodkorlar va harbiy xizmatchilar o’rtasida mustahkam aloqa o’rnatish, yosh avlodni harbiy xizmat va sharafli burchga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ular qalbida ona yurtga muhabbat, mardlik va jasorat tuyg’ularini yuksaltirish, bu borada samarali targ’ibot ishlarini olib borishda madaniyat va san’at ahli, yozuvchi va shoirlar, dramaturg va rejissyorlarimizning hamkorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Eng muhimi, askar va ofitserlarimizning ma’naviy yetuk, o’tkir aql va xush axloq sohiblari, dunyo maydonlarida hamisha g’olib bo’lishlariga munosib poydevor yaratadi.

Zero sohibqiron Amir Temur hazratlari aytganidek, **ma’naviy yuksak millat yengilmasdир.**

**Olimjon O’SAROV,**  
Mudofaa vazirining  
vatanparvarlik targ’iboti,  
ma’naviy-ma’rifiy ishlar va  
yoshlar masalalari bo’yicha  
maslahatchisi

**Boysun tog'larini ko'rghanmisiz? Ehtimol, bunga hali vaqtinuz bo'lmagandir? Agar shunday bo'lsa, tezda yo'lxaltangizni yelkaga ilib, purviqor tog'lar tomon otlaning. Nega, deysizmi? U yerning fusunkor manzarasi, nafis havosi, qalbga "in" qurib olgan jamiki dard-u sitamlarni, azoblarni aritadi. Gapimga ishoning! Chunki men sizga yomonini ravo ko'rmayman.**

Darvoqe kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Mashrab Jo'rayev ham ana shu joyda tug'ilib, voyaga yetgan edi. Ha, o'sha odam. Sarosiyoy va Uzun tumanlarining tog'li hududlarida 2000-yil terrorchilar bilan kechgan jangda halok bo'lgandi. Eh, nimasini aytasiz?! Yosh ketdi. Ammo Vatan uchun ko'ksini tutib bergen. Menmi? Bilmadim, aka, qodir emasmanov. Shunday, qahramon u. Bilaman, Jo'rayev haqida ko'p eshitgansiz. Qancha-qancha maqolalar yozilmadi u haqda. Yo'q. Men boshqa voqeani aytib bermoqchiman. Eshitasizmi?

Toshli yo'l. Tomlari past, ammo did bilan qurilgan uylar. Qirlarda o'ynoqlab esayotgan shamolni to'sishga urinayotgan toychoqlar. Vaqtini o'dirishga bel bog'lagan dehqonlar...

Temir darvoza oldida yoshi ulug' Himmatxon aya bizni qarshi oldi:

– Yaqinlashdik, deganlariningizga ham ancha bo'ldi, – dedi aya e'tirozli tabassum qilib. – Kutaman, kelavermaysizlar. Biror nima bo'lmadimikan, deb xavotirlana boshlagandim.

Onaxonning yuzlari so'lg'in, peshonasini chuqur ajinlar qoplagan. Ko'zlarining osti ko'karib, shishgan. Ro'moli ostidan mo'ralab turgan sochlarga qirov ingan. Ular go'yo hayot mashaqqatlaridan so'zlaydi.

– Yo'l olis-da, aya! – dedi III darajali serjant Akbar Ahmedov o'zini oqlash uchun. Keyin u bizni shoshib tanishtirdi. – Poytaxtdan mehmon olib keldim. Bular sizni ko'rgani, duongizni olgani yuzlab kilometrdan keldi.

Himmatxon aya bizga "yalt" etib qaradi. Ko'zlar yosh bolaniki singari javdiraydi. Keyin siniq jilmaydi:

– Sizlar ham harbiymi? – dedi u hayajonlanib, savol nazari bilan qarar ekan.

Shunday, deb bosh silkidim. Chunki biz fuqarolik kiyimida edik.

Ishonasizmi, onaxon birzumda navqiron bo'lib qoldi. Boyagina bukilib turgan yelkalar, rostlandi. Iyaklar ham mag'rur ko'tarildi. O'tmaslashgan ko'zlarga nur qaytgandek edi go'yo. Charaqlayapti. Ma'nosiz, rangsiz yuzga qon yugurdi. Madorsiz, dardlardan azoblanayotgan oyoqlar ham kuchga to'lib, chaqqonlashdi.

Xonada – to'shalgan ko'rpanchada o'tiribmiz. To'rda qaddi egilgan Xurram bobo. Uning yonida Ahmedov. Kapitan Orifjon Mamajonov chap tomonimda. Ro'paramizda esa Himmatxon aya. Onaxonning qalin, tirishgan lablarida hamon tabassum.

– Uyga formadagilar kelsa, albatta kampirimiz qushdek qanot chiqarib ucha boshlaydi, – dedi Xurram ota

bo'g'iq ovozda. Keyin qattiq yo'talib qo'ysi.

– Uchaman-da, bolam, borlig'im kelganidan keyin, – dedi onaxon piyolaga choy quyib uzatarkan. Ovozi qo'ng'iroyqdek jarang sochardi. – Men uchun har bir Vatan himoyachisi – Mashrabim. Sizga qolsa, tumtayib o'tirsam-da, – aya qovog'ini uyib oldi, – ko'zyosh qilsam, xursand bo'lasiz-a, chol?

– Ota sizni rashk qilyaptilarov, – dedi Akbar Ahmedov. – Buni chin muhabbat, o'lmas sevgi, deydilar!

Hammamiz ovoz chiqarib kuldik. Himmatxon aya shishgan va toliqqa oyoqlarini uzatib oldi. Keyin umr yo'l doshiga ko'z qirini tashladida, tez gapira boshladi.

– Yig'lamayman, deb o'zimga o'zim allaqachon so'z berganman. Axir nega yig'lay? Bolam tuproqqa singib bo'lgan, – ayol hamon Xurram otoga qarab gapirardi, – faqat uning jasorati va qilgan xizmati qoldi.

Onaxon chuqur nafas olib chiqardi. Shunda keng yelkalari bir ko'tarilib tushdi. So'ng:

– Farzandlarimizni bolaligidan Vatanni sevishga o'rgatdikmi? O'rgatdik! Uning uchun kerak bo'lsa, jon berasan, deb aytarmidik, aytardik.

– Hmm, aytardik-aytardik, – dedi Xurram ota kampirining so'zlarini takrorlab. Keyin qaddini rostladi. Daf'atan yuzi xiralashdi. Biror o'riqdan aziyat chekadigan odam peshonalarini tirishtiradi-ku, shunday qilib olgan edi. To'g'ri aytasiz. Ehtimol, beli qotib qolgandir. So'ng ota yana tilga kirdi:

– Shukr, tarbiya meva berdi! – U oxirgi gapini g'urur bilan aytidi.

Tomog'imga taxir allanima tiqladi. O'pkamda achishish turdi. Miyamda yuzlab otlarning dupuri. Taqalangan tuyoqlar zarbidan ongim o'tmaslashdi. Beso'naqay qo'llarim shalvirab turar, ularni qayerga qo'yishni bilolmasdim. Peshonamni ohista silab, xonaga diqqat bilan razm solib chiqdim.

Devorda osig'lig' oilaviy surat e'tiborimni tortdi: o'rtada ko'k kostyum kiyagan, mo'ylov dor, yelkalar keng erkak. Boshida shlyapasi ham bor. Uning o'ng tomonida esa atlas ko'ylakda, sochlari o'rilgan o'rta yoshli ayol. Quchog'ida taxminan olti oylik chaqaloq. Ularning atrofida 2 nafar qiz va 3 nafar o'g'il bola tik turibdi. Lablarida tabassum. Faqat o'ng tomonda, chamasi to'qqiz yoshlar atrofidi yuzlari quyoshdan qoraygan bola, qo'llarini beliga tirab, qoshlarini chimirib olgan. Bolalikdagi Mashrab Jo'rayev shu bo'lsa kerak, deb taxmin qildim. Adashmagan ekanman.

Keyinmi?! Akbar akaga so'zsiz qaradim. Uning qizil yuzi negadir



Qalin qoshlari tagidagi qovoqlar birdan uyildi. Shu turishda, hatto kiprik ham qoqmay tek turdi-da, keyin muhim gapni aytmasa esidan chiqib qoladiganday shoshib gapira boshladi:

– O'sha tepalik bor-ku, shu joyda o'ynab-ulq'aydik, – u o'ng qo'li bilan Boysun tog'larining etagini ko'rsatdi.

– Mol boqish bahonasida qoyalarga chiqishni o'rgatar edi. Akamning ortidan qolmasdim. U qayerga borsa, o'sha yerda edim. Armiyaga ketgach esa bir qanotli qushga aylandim. Xizmatdan ta'tilga kelganida ikkimiz uzoq gurunglashardik. U mashg'ulotlar ko'p bo'lishini aytardi. Rosti, havas qillardim. Keyin o'sha voqeja haqida xabar berishgach, o'zimni tamoman unutdim. Yuragim og'ridi. Ancha vaqt xushsiz yurdim. Ammo o'lim haq. Akam esa shunchaki jon bermagandi. Yovning qadamini qirrqandi. Demak, umri zoye ketmadi.

Ishoning, tabiatan ko'nglibo'sh odamman. Yo'q, jussanga e'tibor bermang. Bizni shunday siylagan, xolos. Yurak qoramagan hali. Kim aytidi sizga harbiylarning diydasi qattiq bo'ladi, deb?! Undaymas. O'shanda Sanjarning gaplaridan bo'g'zimga allanima tiqilgandi. Achchiq. Yoqimsiz. Zo'rg'a o'zimni tiydim. Churq etmadim. Ha, yashang! U akasini qattiq yaxshi ko'rardi. Akangiz bormi o'zi?

Keyinmi?! Boshimni ko'tarib, bodom shoxlariga qaradim. Chalg'imoqchi edim. Ahamiyat qilmagan ekanman. U gullayman,

ko'karib ketgandi. Xonada hamon og'ir sukonat kezardi.

– Vatan hammamizniki, – dedi Orifjon Mamajonov jimlikni buzib. – Mashrab aka, aslida, har birimizning nigohimizda, har birimizning qalbimizda yashaydi. Ular hech qachon unutilmaydi, unuta olmaymiz ham!

# QISHDA

– Bilaman, – dedi Himmatxon aya. Eshik ochilib, o'rtabo'y, ozg'in, sochlari siyrak, yo'l-yo'l ko'ylak kiygan qirq yoshlar atrofidagi erkak mayda qadam tashlab kirib keldi. U bilan so'rashar ekanman, ko'zlaridan darrov tanidim: ha, suratdag'i chaqaloq – Mashrab Jo'rayevning ukasi Sanjar.

– Yoshligimga juda ham qaytgim keladi, – dedi Sanjar tashqariga chiqqanimizda. U ko'zlarini uzoqqa tikib turardi. Yuzida hech qanday ma'no yo'q. – Bilaman, bu imkonsiz. Qaytmaydi. Qaytarolmayman ham.

Ikkimiz supa labidagi bodom tagida yonma-yon turardik. Qorning sovug'i har tomonidan savalab o'tyapti. Yuzimga ignalar sanchiladi. Qunishaman.

– Umr bahor toshqiniga o'xshaydi, – dedim sovuqdan qaltirab. Keyin qo'llarimi bir-biriga tez ishqalab, chontagimga soldim. – Bolalikning jo'shqinligi avvalboshi olamni buzadi, so'ng o'zining ortidan cheksiz ko'piklarni qoldiradi: xatolar, orzu, armon va tashnalik...

– Armonmi? – dedi Sanjar. Uning ovozida nadomat va afsus bor edi. So'ng: – Mashrab akam bilan birga o'tkazgan damlardan qolgan ko'piklar allaqachon yorildi, – u jim bo'lib goldi.

deb turibdi. Dong qotdim. Ha, yanvar oyining oxiri edi.

– Bu daraxt uyg'onibdi, – dedim Sanjarga qaragancha hayratlanib. Ovozim chiyillab chiqdi. Uyalib ketdim. Keyin: – Yo qudratingdan. Buyoqda qor. Yana dahshatli sovuq. Lekin bodom gullayman, deb turibdi. Albatta, O'zi xohlasa, qahratonda o'rik pishadi. Tabiat ham, maxluqot ham faqat Uniki. Mo'jiza...

O'zimga o'zim gapirayotgandek edim go'yo.

– Mashrabim ekkan edi, – degan ovoz keldi ortimizdan. Darrov tanidim. Himmatxon aya og'ir qadam tashlab oldimizga kelayotgan edi. – Mana bu atirgul ham uning qo'li bilan yerga qadalgan. Daraxtlarni sevardi o'g'lim.

Tabiatga oshno qalb egasi bo'lganda. Yomonlik qo'lidan kelmasdi. Hamisha odamlarning ko'ngliga qarardi. Biroq bir jahli chiqsa, dunyoni boshiga ko'tarardi. O'sha jangda ham u juda ilg'or bo'lgan. Dushmanga la'nat, Vatanga sharaf, degan gapni ko'p takrorlagan ekan. Ha, keyinchalik safdoshlardan eshitdim...

"Dushmanga la'nat, Vatanga sharaf", deya onaxon aytgan so'zlarni xayolimda takrorladim. Ha, o'shanda mening ham boshimga og'riq



# BODOM GULLADI

kirgandi. Zarba yegan buqadek edim. Xuddi sizdek so'zning yukini ko'tarolmaganimdan bo'lsa kerak.

Himmatxon aya dona-dona so'zlab, bodomning tanasini ohista silardi.

– Bular men uchun qadrli, – dedi onaxon boshini tepaga ko'tarib, kurtak ochayotgan shoxlarga qararkan, – ulardan o'g'limning nafasini his etib turaman. Ona, men shu yerdaman, deydi go'yo.

– Lekin bodom bu mahalda gullashi..., – deya g'uldiradim. Chunki tilimga boshqa so'z kelmayotgandi.

Keyin Shukur Xolmirzayevning "Bodom qishda gulladi" hikoyasi esimga tushdi. Chunki shu asarni yaqinda o'qib, adabiyotda hamma narsa bo'ladi-da, degandim. Mana, endi o'z ko'zlarim bilan ko'rib, guvoh bo'lib turibman.

– Surxondaryoda daraxtlar erta uyg'onadi, – deya Sanjar yelkamga bir turtib qo'ydi. – Bir hafta oldin kelganingizda bu yerlarda bahor boshlanibdi, derdingiz. Havomiz

o'zgaruvchan. Tushlikkacha yashillik, innan keyin qish.

Himmatxon ayaga qarayman. Onaxon saratonning qilichidan azoblanib, quriy boshlagan gulga o'xshab, qovjirab qolgandi. Ko'zlarining ichi qizargan.

– Men uchun og'ir dard nima, bilasizmi? – u menga savol nazari bilan qaradi. Hamon qo'llari bodom tanasini ushlab turibdi. Yelka qisdim. Chunki har nima demay, onaning tuyg'ularini his etolmasdim.

– Bolamning ortidan davomchisi qolmagan, – dedi u. Ovozida hech qanday o'zgarish yo'q edi. – Bular esa (*bodom va gulni ko'rsatdi*) menga Mashrabni eslatadi. Undan yodgorlik. Ruhi ularda yashayotgandek. Tunlari bedor bo'lib, tashqariga chiqsam, yashnab turadi. Himoyachimiz. Ehtimol, gaplarimni jiddiy qabul qilmassiz. Ammo Haqning yagona ekaniga imon keltirgan bo'lsangiz, so'zlarimning rostligiga inonasiz. Bolamdek. Bolamning bolasidek.

Qancha qirovlarga, dovul-u to'zonlarga bardosh berdi bular. Qarang, hali ham Mashrabjondek navqiron...

Himmatxon aya gapira turib bir qalqib ketdi. Shunda Sanjar validasi tomon otolib, tirsaklaridan mahkam ushlab oldi.

Himmatxon aya jonsiz jilmaydi.

– Mashrab ho'v o'sha devordan sakrab o'tib, kirib kelardi, – ayol ikki qadam tashlab, menga yaqinlashdi. – U hech qachon darvoza tomondan yurmasdi. Odat bo'lib qolganmi, ishqilib, har safar shunday qilardi. Faqat shu devordan oshib o'tardi. Bo'yi ham baland edi.

Aya ko'rsatgan tomonga nazar tashladim: tomorqa aylanib o'ralgan devorning og'ilxona yaqinidagi joyi nurab, to'kilib tushgandi. Hozir yosh bola ham u yerdan bemalol, hech qanday qiyalmay o'tib ketadi.

– Onam u yerni ko'targani umuman qo'ymaydilar, – dedi Sanjar yuzimda qalqjan savolni anglab. – Indama, deydilar. Onaga qarshi chiqib bo'ladimi? Biz ham akamni shu yerdan kirib kelishiga o'rganganmiz. Hammasini bilsangiz ham kutaverar ekansiz-da! Onam hali ham akamning yo'liga ilhaq. Go'yoki, bir kun kelib, o'sha chehra paydo bo'ladi.

– Paydo bo'lди-ку, – dedi aya mening chap yelkamni ohista silab. Ko'zlar miltillab turibdi.

Shunda uning nafasini his qildim. Qalin kurtkada bo'lsam ham, kaftining qaynoq taftini tuydim. Tanamni qo'rg'oshindek kuydirardi. Vujudim titrab ketdi. Himmatxon aya hamon nigohini mendan uzmasdi. Keyin uning ko'zları birdan o'tmaslashib qoldi. Qorachiqlar cheksiz ummonda yillar sarson-sargardon bo'lgan Nuh kemasi singari qalqib turardi.

– Ruhlar ko'chib yuradi, deyishadi-ku, – dedim arang tilga kirib. Keyin ko'zimni Himmatxon ayadan olib qochdim.

Bardosh berolmasdim. Tizzam titrab ketdi. Nimagadir onamni esladim. Har safar ta'tilga chiqib, uyga borsam, ma'yus qarab o'tiradi. Sog'ingan bo'lsa kerak-da, deb indamayman. Bultur borib qarasam, sochlari oppoq. Umuman qora qolmagan.

– Sochingizni oqqa bo'yab oldingizmi? – dedim hayratlanib. Onam kului. Og'zidagi tishlari ham qolmabdi hisob. Yuragim "shuv", etdi. Ustimidan sovuq suv quyib yuborgandek, seskanib ketdim.

Kech angladim. Sizda ham shunday bo'lganmi? Haa, unda yolg'iz emas ekanman. Bemehr o'g'illar. Xullas, Ahmedov boshini egib, og'ir qadam tashlab oldimizga keldi-da:

– Yo'l olis, qaytmaymizmi? – dedi u quloqlarimga yaqin kelib, pichirlagancha. Bo'yi mendan pastroq bo'lgani uchun u tomonga biroz egildim. – Mamajonov ham tasvirga olib bo'ldi...

Keta turib, bodomning pastga egilgan shoxidan qayrib, sindirib oldim. Qaydam, so'raganim ham yo'q. Miyam qursin. Maqtanmoqchi edim. Kimga bo'lardi, tanishlarga-da! Qishda bodom gulladi, deb. Biroq



Himmatxon ayaning ko'zlarida paydo bo'lgan nafrat qo'rquv solardi ko'ngilga. Nima qillardim. Aybimni bo'ynimga olib, boshimni egib, shafqat so'ragan bo'ldim. Aya qoshlarini chimirib, uy tomonga keta boshladi. Nam tortgan novdani sekingina cho'ntagimga buklab soldim.

Yanvar quyoshi ufqqa tez bosh qo'yadi...

Mashinada ortga qaytdik. Shu yarim kun meni ming yilga qaritgandek edi. Yana o'sha buzuq yo'ldan toshbaqadek sudralib ketyapmiz. Tepamizda siniq oy. Uning nuri tilim-tilim bo'lib, ko'lmaklardagi suvda aks etadi. Ko'zlarim mashina oynasidan tashqariga qadalgan.

– Dushmanga la'nat, Vatanga sharaf! – dedim men.

Ovozim past, ammo nafrat bilan chiqdi.

– Nimadir dedingizmi? – haydovchining yonida ketayotgan Ahmedov yelka osha menga qaradi. Shunda uning qizil, do'mboq yuzining yarmini ko'rdim. – Hammasi yaxshimi?

– Qani endi, yaxshi bo'lsa?!  
– Nima?

Indamadim. Shunchaki Boysun tog'lariga qarab, qo'limdag'i kurtak ochaman, deb turgan novdani aylantirib, jim qolgandim. Miyamni turli o'ylar parmalaydi. Oy nurlari og'ushida erkalanib, yastanib yotgan bahaybat tog'lar tanamni qamrab olgan cheksiz azoblarga malham bo'layotgandi...

Mayli, yaxshi qoling. Aytgancha, Boysun tomonlarga yo'lingiz tushsa, albatta o'sha bodomni ko'rib o'ting. Himmatxon aya sizni quchoq o'chib kutib oladi. Gapimga ishonavering. Men sizni biror marotaba aldadimmi? Aldamayman.



# BOBUR DUNYO NIGOHIDA

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari yigirmadan ortiq xorij tiliga tarjima qilingan bo'lib, asarning shon-shuhrat topishida tarjimonlarning hissasi katta. Asar XVI asrdayoq fors tiliga o'girilgan, uning tarjimoni Bayramxon qo'lyozmasidan ko'plab nusxalar jahoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda.

Jumladan, asarning turkiy va forsiy tildagi nusxalari saqlanayotgan kutubxona va tarixiy-ilmiy markazlar, muzeylar bugungi kunda o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

"Boburnoma"ning fanga ma'lum bo'lishi va tadqiq etilishi G'arb ilm ahli orasida o'ziga xos tarzda kechdi. G'arb ilmiy jamoatchiligiga Bobur nomini ilk bor fransuz olimi D. Derbelo "Sharq kutubxonasi yoxud Sharq fuqarosining bilimiga doir qomuslar" nomli lug'atga "Bobur yoki Babar" nomli maqolasini kiritish orgali ma'lum qilgan. Biroq Yevropada Boburning shuhrati yoyilish davri XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan. Ular "Boburnoma"ni tarjima qilish bilan birga Bobur shaxsiyatini ham qizg'in o'rgangan. Ingliz sharqshunoslaridan Leyden va Erskinding tarjimasi orgali "Boburnoma" Londonda 1826-yilda ingliz tilida nashr qilingan. Ushbu nashrdan so'ng Yevropa va boshqa xorij davlatlarida "Boburnoma"ning tarjima qilinishi, uning shaxsiyati, qoldirgan adapib merosiga qaratilgan tadqiqotlar ko'paydi.

Annett Syuzanna Beverij tarjimasidan keyin Garvard (AQSh) universiteti professori Viler Tekston "Boburnoma"ning yana bir to'liq tarjimasini amalga oshirdi. Tarjimonning "Boburnoma"ga badiiy asar sifatida yondashgani tufayli asarga 700 ga yaqin izohning berilgani tarjimaning ommalashishini ta'minlagan. "Boburnoma"ning ingliz tiliga takror tarjimalaridan so'ng ushbu asar tadqiqiga oid izlanishlar bir necha sohalarni qamrab oldi. Ular tarix, siyosat, sotsiologiya, harbiy strategiya, lingvistika, tabobat, geografiya, shaharsozlik kabilalar bilan bog'liq. Lekin bunday tadqiqotlar orasida Boburning shoirlar iqtidori bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar ko'p emas. Amerika Qo'shma Shtatlari Ogayo universiteti professori Stefan Deyl o'zining "Sakkiz jannat bog'i – Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda Bobur va Boburiylar saltanatining madaniyati" nomli monografiyasida Boburning imperatorlik salohiyati, tarix sahnasidagi ahamiyati haqida so'z yuritish barobarda undagi shoirlik iste'dodini alohida o'rgangan.

Stefan Deyl "Boburnoma" tarkibida mualif tomonidan kiritilgan nazmiy parchalar va uning o'zi tomonidan yozilgan she'rлari sinchiklab tahlil qilgan. Boburning ham she'r yoza olish va boshqa shoirlarga nisbatan xolis baho bera olish salohiyatini e'tirof etadi. Uning aruzni to'g'ri idrok etishi, mumtoz adapibot an'analarini asosida ruboiv, g'azal namunalarini yozishga qiziqishini asar voqealariga, tarjimayi holiga bog'lagan holda tadqiq etgan. Bugungi o'zbek boburshunosligida yuqorida tilga olingan asarlarning ingliz kitobxonlari tomonidan qabul qilinishiga oid, shu bilan birga boshqa tillardagi tarjimalarning sifatiga qaratilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

"BOBURNOMA"ning jahon bo'ylab shuhratini ta'minlashda yaponiyalik olim Eyji Manoning xizmati alohida e'tirofga loyiq. U o'ttiz yil mobaynida "Boburnoma"ning jahon muzeyleridagi asosiy ishonchli qo'lyozmalari (Haydarobod, Qozon, Edenburg, London, Dehli, Parij nusxalari)dan foydalangan holda ushbu manbaning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashga muvaffaq bo'ldi.

"Boburnoma"ning jahon bo'ylab ko'p tillarga takror-takror tarjima etilishida mualif shaxsiyatidagi samimiyat va mardonialik kabi sifatlar muhim omil bo'lgan. Hozirda "Boburnoma" va uning tarjimasiga tegishli tarixiy hujjatlar dunyoning 23 kutubxonasining mulkiga aylangani asar salohiyatining naqadar yuqori ekanini ko'rsatadi.

"Boburnoma"ning Leyden va Erskin tomonidan chop etilgan

nashrida tarjimonlar shu paytgacha fors adapiboti ta'sirida bo'lgan turkiy adapibiotning (chig'atoy) belgilari haqida gapirar ekan, "Boburnoma"ning uslub jihatdan birorta fors asarining belgisini takrorlamasligiga ahamiyat qaratadi. Ushbu ingliz tarjimonlarning fikriga ko'ra, asar hashamadorlikdan xoli. Bu jihatdan Boburning asarda mubolag'a va metaforalarning qo'llamasligi hamda turkiy tilda tarixiy asar yozish imkoniyatlari fransuz, ingliz tarixshunosligiga o'xshashligini qayd etadi. "Boburnoma" asarining tili boshqa Osiyo tillariga nisbatan Yevropa tillariga yaqinligi, aniq va soddaligi uning asosiy uslubi ekanini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ingliz sharqshunoslari Boburning odil shoh sifatidagi qiyofasi va saltanatda o'rnatgan adolatli tuzumi, insoniy fitratini suyib qabul qilishlarida asarning ana shunday omillari muhim o'rinn tutgan.

Garvard universiteti professori Viller Tekston "Boburnoma"ning 1996-yilgi nashriga yozgan so'zboshisida asarning uslubi va tilini tahlil qilar ekan, o'sha davr Hirot adapib muhitini o'rganish asosida Husayn Boyqaro va Navoiy tomonidan turkiy tilda ijod qilishga bo'lgan rag'bat ortidan qisqa muddat bu tildagi adapibot gullab-yashnaganiga e'tibor qaratadi. Viller Tekston o'sha davr muhitida turkiy nasriy asarlar salmog'ining kamligini o'z davrida fors tilidagi adapibiotning mavqeyi balandligini tahlil etadi. **Tarjimon "Boburnoma"ni turkiy prozadagi eng yirik matn, deya baholaydi.** Viller Tekstonning qiyoslashicha, Navoiy va Boburning turkiy tilni hayotiy adapib vositaga aylantirishga bo'lgan urinishi xuddi tovada birzum alangalangan olov kabidir, boisi ularning bu harakatlariga Markaziy Osiyo va Eron tomonidan kirib kelgan urush voqealarining sababchilari (*Safaviy va Shayboniyalar*) tabiiy holatda to'siq bo'lgan.

Kuzatgan tarjimonlarimiz orasida "Boburnoma" tarjimasiga chuqr kirishish barobarida undagi ma'lumotlarni sinchiklab tahlil qilgan, bu haqda yigirmaga yaqin tadqiqot maqolalarini e'lon qilgan Annett Beverijning faoliyati diqqatimizni tortdi. "Boburnoma"ning ingliz kitobxonlariga manzur bo'lishiда ulkan xizmatni amalga oshirgan Annett Beverij tarjima jarayonida Haydarobod qo'lyozma nusxasiga tayanadi. Asarni ingliz tilida e'lon qilish asnosida una tarjimon izohlarini qo'shib chop ettiradi. Olima "Boburnoma"ning tarjimasiga Bobur bosib o'tgan yo'llar – Xuroson, Mavarounnahr, Hindiston kabi mamlakatlarning hududiy, regional chegaralarini o'rganadi hamda xaritalar ishlab chiqib, nashr ilovalariga qo'shgan.

## ANNETT BEVERIJ XONIM

"Boburnoma"ni aynan turkiy tilni chuqr o'rgangan holda tadqiq etadi hamda uning matn leksikasiga ehtiyojkorona munosabatda bo'ladi. Olima asarni o'rganar ekan, Mavarounnahr va Xurosonda kechgan adapib manzaralar, tarixiy asarlarning yozilish uslubi, shuningdek "Boburnoma" matning yaralish sabablari haqida o'z ilmiy taxminlarini ilgari suradi. "Boburnoma"ni ingliz tiliga o'girishda boshqa tarjimonlardan farqli ravishda mavzuga chuqr kirib borgan. Ya'nii asarning matnini shunchaki tarjima qilish bilan emas, "Boburnoma" qo'lyozmalarini tavsiflash, ularning ishonchlilarini saralash, o'zigacha nashr etilgan "Boburnoma" nashrlariga fikr bildirish hamda tarjimonlarning mahoratini ularning asliyatni saqlashdagi xizmatini

xolisona o'rgangan. "Boburnoma"ni puxtalik bilan izlanishlar orqali chuqur o'rganish hamda uning qo'lyozmalaridagi tafovutlarni aniqlash kabi masalalarga Beverijdan oldingi va keyingi ingliz tarjimonlari bu qadar anqlik bilan kirib bormagan edi. **Muallif o'zining "Boburnoma"ga oid izlanish va tadqiqotlarini 1900-yildan 1921-yilgacha bo'lgan muddatlar oralig'iida "Journal of the Royal Asiatic Society" ("Qirollik Osiyo jamiyat" jurnalida e'lon qilib bordi** hamda Haydarobod qo'lyozmasining faksimilesgiga tayangan holda asarni ingliz tiliga tarjima qilishga erishdi.

Annett Beverij o'zining so'zboshisida "Boburnoma"ni tarjima qilish bilan birga Boburni kamolga yetkazgan temuriylar xonadoni va ularning an'analariga e'tibor qaratdi. Asarning yo'qolgan sahfalari va ularda yozilishi mumkin bo'lgan tafsilotlar haqida ham o'zining farazlarini ilgari surdi: "Boburning daholik qobiliyati xoh shoir, xoh nosir, xoh bog' yaratuvchi, xoh musavvir, xoh hunarmand, xoh sportchi bo'lsin, uning fayzli oilaviy an'ana va namuna zaminidan oziqlangan edi. Boburning ta'lif-tarbiysi, hozirda uning uzhishlar bilan yetib kelgan kitobida halokatdan qutulib qolgani haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, uning tug'ilgan yillari haqida juda oz tafsilotlar bor".

Olima "Boburnoma" matni orqali Boburning bolaligi va hayotining boshqa muhim voqeliklari aks etgan sanalarni o'sha davda yaratilgan boshqa tarixiy asarlarga murojaat qilgan holda tiklashga harakat qiladi: "Lekin taskin beradigan shuki, temuriylar xonadoni kutubxonalarini orqali bizga yetib kelgan anchagina mukammal shaklga ega bo'lgan Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asari bo'lib, unda "Boburnoma"ning ko'plab epizodlari tarjima qilingan (Annett Beverij xonim "Tarixi Rashidiy" asarining muallifi to'liq nusxadagi "Boburnoma"ni o'qiganiga ishora qilmoqda) bo'lib, ular asardagi shu bo'shiqliarni to'ldirishga yordam beradi, jumladan Boburning ilk bolalik davrlari haqida ma'lumotlar beradi".

Beverij Bobur voyaga yetgan, kamol topgan xonadonning shu paytgacha boburshunoslari e'tibor qilmagan jihatlarini ta'kidlab o'tgani bilan ham boshqalardan farq qilib turadi. Ko'plab tarixchilar Eson Davlatbegimni Bobur hukmronligining dastlabki yillarda qo'llab-quvvatlovchisi bo'lganini aytishsa-da, lekin uning ota tomondan buvisi Shoh Sultonbeginning ta'siri masalasiga to'xtalimagan: **"Boburning hayotiy hikoyalari kishini qattiq hayajonga soladi, lekin bu holni batafsil tushuntirish uchun u juda uzunlik qiladi; Umarshayx onasi Shoh Sultonbegin Eson Davlatbegimnikidan tubdan farq qiladigan xizmat turini olib keldi; Sultonbegin - Samarqandning badavlat xonadonida turmush sharoitiga ko'nikkan shaharlik, taxxon urug'idan bo'lgan ayol sifatida ikki karra yetuk va madaniyatli ayol edi".**

Boburning ta'lif-tarbiyasida muhim rol o'ynagan bobosi Yunusxon va tasavvufiy valiy zot Xoja Ahror haqida Annett Beverij alohida to'xtalib o'tadi: "Umarshayx saroyi muhitida uzoq yillar davomida ikki ulug' zot shahar hayotini yaxshi ko'radian donishmand Yunusxon va avliyo Xoja Ahror hukmronlik qilgan. Xoja Ahror Valiy Bobur tug'ilganida unga nom qo'yishda yordam bergan. Xoja Ahror Valiy 1491-yilda - Bobur yetti yoshga to'lganida vafot etgan, lekin uning ta'sir doirasi umrbod davom etgan;

1529-yilda qattiq isitma qilgan Bobur undan ruhiy madad so'rigan holda, uning vositachiligidagi shifo topganini yozadi". Beverijning Yunusxonaga xos bo'lgan ta'rif - "shahar hayotini yaxshi ko'rishi" haqidagi sifati haqiqatan ham manbalarda o'z tasdig'i topgan. Jumladan, Muhammad Haydar mirzo "Tarixi Rashidiy" asarida Yunusxonning shahar madaniyatiga intilishi, ko'p karra Toshkentga kelib istiqomat qilishga urinishi, lekin bu tanloviga uning atrofidagi amaldorlari qarshi chiqqani haqida yozib qoldig'an.

Olima Yunusxonning fazilatlari Bobur kamol topgan muhitga qay darajada ta'sir etganini o'rganar ekan, haqli ravishda uning Sharafiddin Ali Yazdiyning qaramog'ida o'sganini, qo'lidan "Zafarnoma" asari tushmagani, shu bilan birga islam ta'lomitidagi muqaddas kitob Qur'oni chuqur o'rganganini ta'kidlaydi: "Yunusxonning faoliyati serqirra edi - qalamkash, rassom, qo'shiqchi, cholg'uchi va hunarmandchilik ustasi. U xushmuomala va odob-axloqli, zukko zehn va notiqlik qobiliyatiga ega bo'lgan yaxshi do'st edi. Uning aql-zakovatda ajralib turishining sababi o'n ikki yil davomida yuqori martabali olim Sharafiddin Ali Yazdiy ("Zafarnoma" asarining muallifi) qaramog'ida tarbiyalangani bilan bog'liq edi".

**"U taxminan 74 yil umr ko'rди, bu Temurning o'limi (1404) va Boburning tug'ilishi (1483) davri o'rtasidagi ko'prik edi".** Annett Beverijning bu sanalarni muhim davr sifatida belgilashi va uning ko'prigi sifatida Yunusxon umrining qiyoslashi hali shu paytgacha biror sharqshunos olim izlanishlarida kuzatilmagan.

Annett Beverij Boburning bolalik chog'larida uning yetuk shaxs bo'lib yetishishiga eng muhim omil bo'lgan davralarni ham o'z qaydlarida eslatib o'tgan: "Bola - Boburning uch do'sti (Yunusxon, Umarshayx mirzo, Xoja Ahror Valiy) suhbat mobaynida hozir bo'lishi unga fayz beradi, deb o'ylashgan; ularning ro'parasida sukut saqlash orqali donolik va fazilatlariga nisbatan hurmat urug'i sepilar edi, masalan, Abdurahmon Jomiya nisbatan chuqur ehtirom his qilingani kabi. Bu o'rinda hech bo'lmaganida, Yunusxonning san'atkorona yutuqlari haqida to'xtalsa, arziydi, chunki Bobur keltirgan tarjimayi hol, Yunusxonning rafiqasi Eson Davlatbegim ma'lumotlariga tayanib yozilgan bo'lishi mumkin va bu uning namunalni faoliyati keng bo'lganidan dalolat beradi". Darhaqiqat, olimaning bu ta'kidi orqali Yunusxonning hayot yo'li haqidagi ma'lumotlar Eson Davlatbegim tomonidan so'zlab berilgan ishonchli og'zaki hikoyalarga tayanilgan holda yozilgan bo'lish ehtimoli katta.

**OLIMA TOMONIDAN** e'tirof etilgan yana bir jihat shundan iboratki, u Bobur ta'lif olgan Farg'onan hududida Yunusxon va Umarshayx o'rtasidagi munosabatlari ota-bola o'rtasidagi munosabatlarga qiyoslanadi, bu holat ham bo'lajak hukmdorning sog'lom fikrli, og'ir mulohazali bo'lib yetishishiga ta'sir qilgani aniq. "Aytishlaricha, uning (Chig'atoy) naslidan birorta ham xon 40 yoshdan oshmagan; Yunusxonning ulug' vor yoshi unga nisbatan ehtiromni uyg'otdi va xotirjam yurmaydigan yosh kuyovi Umarshayxga o'z ta'sirini kuchaytirdi. Aftidan, Yunusxon Umarshayxning taxminan 20 yoshidan to o'zining vafotiga qadar davom etgan do'stlik aloqasini boshlagan bo'lsa kerak, bu do'stlik har xil davrlar odatiga ko'ra, ota-bolaning do'stligi, g'amxo'rliqi edi,

ya'ni Umarshayx teng sheriklikdan ko'ra, munosabatlarni teng saqlagan o'g'il maqomida edi".

Bobur ulg'aygan oilada kitobxonlikning ham qay darajada taraqqiy etgani hamda bu kitobxonlikka sababchi bo'lgan uch yirik shaxsning beqiyos hissasi, Boburning bu kitoblarga qanday qiziqish bildirgani haqida ham olima o'zining haqli fikrlarini aytib o'tadi: "Umarshayxning ikki yuksak obro'li va salohiyatlari hamrohlari - Xoja Ahror Valiy va Yunusxonning uzoq vaqtlar mobaynida unga do'stona yo'li yo'riq ko'rsatgani, bu zotni saltanat imtihonlarida toblantirishi unga nisbatan ezgulikning muattar bo'yini yog'dirmay qo'ymas edi, shuning uchun u buyuk kitoblarni mutolaa qilar edi. Uning sevimli kitoblari - Qur'on va Masnaviy edi. Bu tanlov sabab Abulfazl uni xiradmand darvesh deb atagan. Bobur otasi Umarshayx vafotidan oldin uning bunday kitoblarni mutolaa qilishidan zavqlanib, ulg'aygan edi. Boshqa ota-onalar va boshqa bolalar singari bu yerda ham osoyishta kayfiyat, kitob sahifasida nima borligiga o'z-o'zidan qiziqish uyg'onishi, ehtimol, Boburning aqlli savollari hamda mohir qiroatlari bolakayning adabiy ijodga yo'llovchi ko'rsatma bo'lishi mumkin bo'lgan ko'p yillik mo'jizadan hayratga tushardi".

Annett Beverij Boburning kamolotida ma'rifatli oilasining o'rni qay darajada bo'lganini tahlil qilar ekan, uning yozuvchilik, muarrixlik qibiliyatiga aynan oilaviy muhit ta'sir qilganiga ham to'xtalib o'tadi. **"Ammo boburshunoslikda Amir Temurni nafaqat jangchi, balki yilnomachi sifatida ham Bobur uchun buyuk namuna bo'lgani haqidagi farazlarni qabul qiladiganlar kam. Temur o'zi va uning fuqarolik ishlari to'g'risida bunchalik ma'lumotga ega bo'lgan odamlar guruhibidan yiroqda yurgan bo'lib tuyulishi mumkin emas edi".**

Olima "Boburnoma"dek yirik memuarning yaratilishiga to'g'ridan to'g'ri qaysi muhit ta'sir qilgani yoki muallifning yuksak ehtirom namunasi sifatida tilga olgani Temurbekdan o'tgan qobiliyat namunasi bo'lgan degan masalaning qo'yishida ham o'sha davrdagi Temuriylar adabiy muhitiga xos bo'lgan an'analarni o'rganib chiqqanidan dalolat beradi. Ya'ni olima muarrixlik qobiliyati bevosita Temur va uning keyingi nabiralari davrida keng rivojlangan madaniy muhit ta'sirida bo'lganini ishonch bilan gapirib o'tadi: **"Samarqandda Shohruxiy nabiralarining muallifik an'analarini davom ettirgan bo'lsa-da, Temurning ibrat namunasi Boburga o'z nabirasi Ulug'bek orqali yetib keldi".**

Shu bilan birga Annett Beverij "Boburning hayoti, faoliyatiga Sulton Husayn mirzo hukmronligi davridagi Hirot madaniy muhiti mazmunan eng kuchli ta'sir qilgan"ini boshqa sharqshunoslari qatorida haqli ravishda ta'kidlaydi. Bu ta'sirning darajasi qanchalik yuqori bo'lganini "Boburnoma"ning Hirot manzaralarini tavsifiga bag'ishlangan lavhalaridan uqib olish qiyin emas.

Annett xonim bu muhitdagi an'analarni, taraqqiyot belgilarini so'zlab o'tar ekan, o'z-o'zidan Alisher Navoiyning xizmatlariga ham e'tibor qaratdi. Shuningdek, Annett Beverij Boburning ibratlari hayot yo'li yoritilgan **"Boburnoma"** asari orqali uning ikki muhim fazilatini tavsiflaydi: "Boburning ibratlari umri haqidagi arzimas izlanishlarimda uning

yuksak san'atining ikki umrboqiy hamrohi, tabiatga muhabbati va buyuk me'moriy ijodkorligiga qoyil qolish haqida so'z yuritmasam, taassurotlarim to'liq bo'lmaydi. Birinchisi, kitobning boshidan oxirigacha quvonch hamrohlik qiladi. Ikkinci hamrohi esa Temurning barpo etgan Samarqandini ehtirom qilishi orqali alohida ko'rsatilgan". **Olima o'z fikrini davom ettirar ekan, Boburning imkoniyatlari bilan Temurning imkoniyatlarini qiyoslaydi va Boburning Kobulda yashagan paytidagi iqtisodiy holatiga ham e'tibor qaratadi:**

"Temur muhtasham qasrlar va ulug'vor bog'lar barpo etgan; Bobur ko'p inshootlarni zavqlanib qurdi, qurg'oqchil joylarni obod qildi, lekin uning me'morlik qobiliyatini sinab ko'rish uchun imkoniyati kam edi, chunki Bobur u qadar badavlat, ma'mur bo'lмаган, Kobulda o'z Vataniga qaraganda, bir necha bor qashshoq tarzda yashagan. Ammo uning g'olib qilichi hind sulolasiga boylik baxsh etgan omad qushini qo'lg'a kiritdi va unga me'morchilikning foydalanilmagan mehr-muhabbatini topshirdi, natijada u hukmronlik qilgan davrda Hindiston Samarqanddan o'zib ketdi".

**BUNDAN TASHQARI,** A. Beverij "Boburnoma"ning mayjud qo'lyozmalarini taqqoslash orqali maxsus jadvallar yaratib, ularning bugungi kundagi saqlanish manzili, qaysi kotibdan ko'chirilgani, fanga kim ma'lum qilgani haqida so'zlaydi. Beverij o'zining mulohazalarida Buxoro qo'lyozmasi, Ilminskiy tayyorlagan Kazan nashri haqidagi qarashlarini bayon qiladi. Olimaning asl matnni tiklash, yo'qolgan sahfalarda qayvoqealarning aks etishiga oid farazlari boburshunoslik ilmi uchun bugungi kunga qadar o'ta ahamiyatli mulohazalardir.

Qolaversa, Boburning adabiy uslubi haqida ham o'z qarashlarini ilgari surishida boshqa tadqiqotchilarnidan butkul farq qiladigan tomonlari bor. Birgina maqolada Annett Beverijning yigirma yil davomida amalga oshirgan tadqiqotlari natijasi bo'lgan ingliz tilidagi "Boburnoma"ning so'zboshisida ko'tarilgan fundamental masalalarni tahlil qilish imkonи mushkul, albatta. Shunga qaramay, Bobur ulg'aygan xonadon kitobxonligi, ota va ona tomonagi bobo-buvilarining ma'rifatli zotlar ekaniga oid qaydlari o'ziga xos tarzda original misollar bilan isbotlangan.

Xulosa qilib aytganda, "Boburnoma" qo'lyozmalarining jadvallar asosida tahlil qilinishi va kelajakdagil tadqiqotchilarining bu ishni yanada mukammalashtirish haqidagi fikrlari sohaning shu kungacha yechilmay kelayotgan vazifalari sirasiga kiradi.

**Elmira HAZRATQULOVA,** O'zFA Temuriylar tarixi davlat muzeysi ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori



**Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi,  
mislsiz qahramonliklar ko'rsatgan  
samarqandlik o'zbek o'g'loni  
Sharif SAMATOV xotirasiga bag'ishlanadi.**

(Davomi. Boshi o'tgan sonda).

**QATNASHUVCHILAR:**

**Sharif Samatov** – Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Italiya hukumati tomonidan “Jasorat” medali bilan taqdirlangan. O’zbekiston Respublikasining “Shuhrat” medali bilan mukofotlangan. Partizanlar otryadining razvedkachisi (*rus, italyan, nemis tillarini mukammal bilgan*)

**Zahro xola** – Sharif Samatovning onasi

**Safiya** – Zahro xolaning qizi (*do'konda sotuvchi*)

**Ra'no** – Zahro xolaning nabirasi (*maktab o'quvchisi*)

**Antoni Befizkorelli** – Italiya “Milliy ozodlik harakati” partizan guruhlari komandiri

**Ambruzani Renato** – italyan partizani (*yashirincha ixtiyorliy partizanlar otryadiga odam to'plovchi*)

**Nikolay, Vasiliy** – Sharif Samatovning konslagerdagi do'stlari

**Kampir va chol** – o'rmon yaqinida yashovchi va partizanlar otryadiga oziq-ovqat yetkazib beruvchilar

**Aleksandr Danilov** – tergovchi  
**Obershturmbanfyurer**

**Gans** – nemis askari

**Aleksey Dubich** – “Internatsional” nomli partizanlar guruhining boshlig'i

**Yetorina Frezo** – partizan qiz (*italiyalik*)

**Yakov Isayevich Bakman** – Samarqand shahri komiteti xizmatchisi, Sovet Ittifoqi Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, yozuvchi

**Yuriy Nikolayevich Aleskerov** – SamDUNing Tariix fakulteti professori, akademik

**Qamoqxona boshlig'i va kotibi.**

**V KO'RINISH**

Sharif boshchiligidagi partizanlar Selino qishlog'iiga hujum uyuşdırılıb, nemislarni qirib tashladı.

**Aleksey Dubich.** O'rtoqlar, Selino qishlog'i ishg'ol qilindi. Afsuski, oramizdan jasur partizan jangchilarimizning ba'zilari halok bo'ldi. Halok bo'lgan jangchilarimizdan razvedkachi Qudratni nemislarni taxtaga mixlab, daraxtga osgan. Biz uchun eng katta yo'qotish – Qudratning halok bo'lishi. Ular mislsiz qahramonliklar qildi. Vatan himoyasi uchun o'z jonlarini fido etdi. Halok bo'lgan jangchilarimiz xotirasiga bir nafas sukul saqlashingizni iltimos qilaman (*hamma bir daqiqqa*

sukut saqlaydi). Bugungi g'alabamizga katta yordam berib, dushman soqchilarini o'ldirib, bizga yo'l ochib bergan Alessandro Samatovga alohida minnatdorligimni bildiraman. Nemislarning maxfiy hujjatlarini qo'lga kiritib, taqdim qilgani bizning katta yutug'imiz bo'ldi. Jangda jasorat ko'rsatib, qishloqni dushmanidan ozod etgan, aziz safdoshlari, hammangizdan minnatdorman! Vatan, xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan do'stlarimiz qalbimizda abadiy yashaydi! Biz ularni bugun etdik. Biz uchun og'ir judolik bo'ldi! Yashasin, Ozodlik! Dushmanga o'lim! (*Hamma takrorlaydi*) Yashasin, ozodlik, dushmanga o'lim!

*Hamma chiqib ketadi. Sharif Qudratning ustiga borib, fotiha o'qiydi.*

**Sharif** (*xafa bo'lib, o'ziga o'zi gapiradi*). Qudrat, seni hech qachon unutmayman, do'stim! Joying jannatda bo'lsin! (*Sharif tiz cho'kib, omin qiladi*) Qudrat, sen uchun, vatandoshlarim uchun, ota-onam uchun fritslardan o'ch olaman!

**VI KO'RINISH**

“Italiya milliy ozodlik harakati” partizanlar guruhlari komandiri Antoni Befizkorelli, Renato va Alessandro Samatov suhbatalashadi.

**Antoni Befizkorelli.** Sharif Samatov, men “Italiya milliy ozodlik harakati” partizanlar guruhi komandiri Antoni Befizkorelli bo'laman. Sizni Alessandro Samatov deyishadi, shundaymi?

**Sharif.** Xuddi shunday, o'rtoq komandir! “Internatsional” partizanlar guruhi komandiri Aleksey Dubich shunday deb atadi.

**Antoni Befizkorelli.** Siz haqingizda eshitdim. Nemis, italyan tillarini yaxshi bilan ekansiz, qayerdan o'rgandingiz?

**Sharif.** O'rta maktabda nemis tilini yaxshi o'rganganman. Urush boshlangandan so'ng o'zim bilan nemis tili lug'atini hamda grammatikasini olib yurdim. Bo'sh paytlarimda o'qib, o'rgandim. Konslagerda bo'lgan paytimda nemislarning gaplari va talaffuziga e'tibor berardim.

**Befizkorelli.** Sizning jasurligizingiz haqida ham eshitdim. Qanday qilib nemislarning ishonchiga kirdingiz? Ularni ishontirish qiyin.

**Sharif.** Konslagerdan qochib, o'rmonda bir necha kun yurgandan so'ng partizan Aleksey Dubich otryadiga qo'shildik. Bir kuni harbiy razvedkaga borib o'rmonda adashib qoldim. O'rmon

chekkasidan ketayotganimda nemis ofitserini ko'rib qoldim, velosipedining zanjiri uzilib, tuzatishga urinayotgan edi. Sekin panalab borib, qo'qqisdan unga tashlandim. Nemis ofitseri to'satdan qilingan hujumdan gangib qoldi. U bilan olishib, uni pichoqlab o'ldirdim. Kiyimlari va avtomatini olib yo'lga tushdim. Poyezdga o'tirib, Milanga bordim. Milanga yetgach, hujjat tekshirish boshlandi. Meni ular komendaturada ikki hafta ushlab turdi. So'ng patrul meni qynoqqa soldi. Men Triyest shahridan kelyapman, polkimiz shu tomonga jo'natilgan. Men poyezddan kechikdim, deb bir xilda javob berdim. Ular meni Bajo ishchilar posyolkasidagi qurol-yarog'ni to'playdigan ishchi batalyoniga jo'natdi. Bir kuni shu shaharda Ambruzani Renato bilan tanishdim. Renato orqali tunda

qurol-yarog'ni partizanlar otryadiga yetkazib berar edim. Nemislarning ishonchiga kirganim uchun ular meni kuzatmas edi. Shu tariqa guruhingizga keldim. Nemislarning bazalari haqidagi ma'lumotlarni to'pladim. Mana bunda chizib ko'rsatganman (*chizmani unga uzatadi*).

**Antoni Befizkorelli.** Alessandro, sizni bizga olib kelgan ma'lumotlaringiz, yetkazib bergan qurol-yarog'larining biz, partizanlar uchun qanchalik muhimligini bilasizmi? Bu ishingiz tahsinga loyiq.

Sizlarga yana bir topshirig'im bor. Komo shahri yaqinida nemislarning o'qdori, to'plari, tanklari ortilgan eshelonni portlatasizlar. Buni amalga oshirsangiz, Italiyaning nemislardan ozod bo'lishiga katta hissa qo'shgan bo'lasiz. G'alaba yaqin, o'rtoqlar!

**Renato va Sharifga qarab gapiradi.**

**Sharif.** Vatanimga xizmat qilaman! Halok bo'lgan do'stlarim uchun, ona Vatanim uchun nemislardan o'ch olaman!

**Antoni Befizkorelli.** Alessandro, o'zingiz bilan mana bu ro'yxatdagi jangchilarimizni olib borasiz. (Ro'yxatdagi jangchilarning ism-familiyalarini o'qiydi) Renato Ambruzani, Renso Bursati, Teno Bambaridio, Mario Domenenko, Bardilo Severenko, Juzuni Bianko, Ivan Petrovich Vasilenko, Vladimir Chilli kabi jangchilarga boshchilik qilasiz. Nihoyatda ehtiyoj bo'linglar, hammalaring nemis kiyimlarini kiyib olinglar.

**Sharif.** Eshitaman, o'rtoq komandir! Ishonchingizni oqlaymiz!

**Antoni Befizkorelli.** Sizlarga omad yor bo'lsin!

**Hammasi chiqib ketadi.** Xonada Sharif qoladi. Shu payt Yetorina kirib keladi.

**Yetorina.** Alessandro, azizim, maxsus topshiriq olganining bilaman, o'zingni ehtiyoj qil. Sen mard, jasur yigitsan. Baribir sendan xavotir olaman.

**Sharif.** Yetorina, bu urush, azizam, bizda shunday maqol bor. Qirq yil qirg'in kelsa, ajali yetgan o'ladi. Sen juda mehribon qizsan, tushunaman. Albatta, tirik qaytaman! Fritslardan o'ch olmagunimcha, o'lmayman! Sen ham o'zingni ehtiyoj qil!

**Yetorinaning qo'lini ushlaydi.** Unga mehr bilan qaraydi.

**Yetorina.** Alessandro, ayt-chi, sevgan qizing bormi? Sevganmisan?

**Alessandro.** Yo'q, sevmaganman.

**Yetorina.** Men seni hurmat qilaman. Sen hech qachon yolg'on gapirmaysan, qalbi toza yigtsan.

**Sharif.** Tushundim, Yetorina, hozir urush ketyapti, o'zing tushunasan-ku...

**Yetorina.** Urush tugasa, sog'-salomat bo'lsak, Italiyada qol. Men seni... (Yerga qaraydi).

**Sharif.** Yetorina, mendan xafa bo'lma. Men Italiyada qol olmayman, ona Vatanim O'zbekistonga qaytaman. Men Vatanimni hech narsaga alishmayman. Aga r xohlasang, seni O'zbekistonga olib ketaman.

**Yetorina.** Bu yerdan keksa ota-onam bor. Alessandro, men ularni yolg'iz tashlab keta olmayman.

**Sharif.** Men ham yolg'iz onam va opamni tashlab, Italiyada yashay olmayman. To'g'ri, Italiya ham men uchun qadrli, odamlari mehmondo'st, mehribon, ajoyib insonlar, lekin tug'ilib o'sgan shahrimni, yaqinlarimni sog'indim. Men ularni har kuni tushimda ko'raman. Qani edi, urush tugasa. Qanotim bo'lsa, uchib ketardim. Sen ajoyib qizsan! Juda go'zal, qalbi olov farishtasani! Muhabbatning ishonaman. Lekin seni aldar, oila qurib, baxtsiz qilib tashlab ketolmayman. Azizam, vijdonim bunga yo'l qo'ymaydi. Sen ham harbiy kiyim kiyib, qiz bola boshing bilan partizanlarga qo'shilib, Vatanining himoya qilyapsan. Sendagi jasurlik, fidoylik ba'zi bir yigitlarda yo'q. Men seni o'z singlimdek ko'raman.

**Yetorina.** Bo'ldi, bo'ldi, Alessandro! Hayotimda hech kimni senchalik sevmaganman. Haqiqiy muhabbat nima ekanini endi his qildim.

**Sharif.** Yetorina, azizam, urush tugasa, men bilan yur. Men seni Samarqandga olib boraman. Samarqand juda qadimiy shahar. Odamlari mehmondo'st, mehribon, samimiy insonlar. Onam ham juda mehribon, ochiqko'ngil ayol.

**Yetorina.** Sevib, sevilmasang, baxtsizsan. Bilaman, meni o'z singlimdek ko'rasan, vijdonli yigtsan. Ammo...

**Yetorina ko'yzosh qilib, yugurib chiqib ketadi.**

**Sharif.** Yetorina, Yetorina, shoshma!..

### VII KO'RINISH

*Milan shahridagi harbiy eshelon Sharif Samatov boshchiligidagi portlatiladi.*

**Sharif.** Renato, mana eshelonni portlatdik. Men nemislarni chalg'itib turaman. Milan shahridagi harbiy eshelon portlatilganini, ikkita pulemyot va quroslashalar, qo'lga kiritilgan narsalarini guruuga yetkazib topshirasan. Komandiriga ma'lumotlarni berasan. Sizlar zudlik bilan bu yerni tark etinglar!

**Renato.** Alessandro, seni yolg'iz tashlab ketmaymiz. Axir asirga tushima mumkin.

**Sharif.** Renato, bu yerda komandir men bo'laman! Shunday qilmasam, hammamiz qo'lga tushamiz. Buyruqni bajar! Kech bo'lmasdan tezroq ketinglar!

**Renato.** Buyrug'ing bajariladi, o'rtoq komandir! Alessandro, o'zingni ehtiyoj qil, do'stim! Qo'lga tushma, umid qilamanki, yana uchrashamiz.

**Sharif nemislarni chalg'itish uchun ketadi.**

**Renato buyruqni bajaradi.**

### VIII KO'RINISH

*Sharifni nemislarni tutib oladi. San-Vettore qamoqxonasi. Obershturmbanfyurer kabineti. Devorga Gitlerning rasmi osilgan. Stol-stul qo'yilgan.*

**Obershturmbanfyurer.** Isming va familiyangni ayt?

**Sharif.** Alessandro Samatov.

**Obershturmbanfyurer.** Kommunistmisan?

**Sharif.** Yo'q.

**Obershturmbanfyurer.** Yahudiyisman?

**Sharif.** Yo'q. O'zbekman.

**Obershturmbanfyurer.** Partizanlar qayerda? Qayerga yashiringan?

**Sharif.** Bilmayman.

**Obershturmbanfyurer.** Agar hamma gapni aysang, nemis ko'ngillilari otryadiga o'tasan (*u yoqdan bu yoqqa asabiylashib yura boshlaysdi*). Devorga osilgan Gitlerning portretini ko'rsatib). Fyurerimga sadoqatingni ko'rsatasan. Seni kechiramiz. Faqat hamma savollarimga to'g'ri javob berasan. Partizanlar necha kishi? Qancha quroli bor? O'rmonning qayerida joylashgan?

**Sharif.** Hech narsa bilmayman, dedim-ku!

**Obershturmbanfyurer.** Nemis tilida yaxshi gapirar ekansan. Josusmisan? Nemislarning kiyimlarini qayerdan oldinglar? Albatta, bizning soldatlarimizni o'ldirib olgansizlar.

Shundaymi, gapir?! (*Sharif indamay yerga qaraydi*) Bizni o'rmonga olib borib, partizanlarning qarorgohini ko'rsatasan. Biz seni kechiramiz. Tushunarlimi?! Bo'lmasa, joningni sug'urib olamiz!

**Sharif.** Men senlardan nafratlanaman! Hech qachon Vatanimni sotmayman!

**Obershturmbanfyurer.** Mana bu qo'lqopimning ichida temir bor (*qora qo'lqopini ko'rsatib*). Joning shirin bo'lsa, gapirasan.

**Sharif.** Yaqinda g'alaba qilamiz, senlarning kuning bitgan, bosqinchilar!

**Obershturmbanfyurer.** Tirnoqlaringni qo'porib olaman, keyin bulbulday sayraysan! Gans, tirnoqlarini qo'por.

*Eshik oldida turgan askar Sharifning tirnoqlarini qo'pora boshlaysdi.*

**Sharif** (*og'riqdan ingrabi*). Ablahlar, fritslar!

**Obershturmbanfyurer** (*oyog'idagi etik bilan Sharifni tepa boshladi*). Gapir, itvachcha! Bilasan, hamma narsani bilasan (*Sharif ingraydi. Uning yuziga qo'li bilan qattiq uradi. Sharifning jag'i chiqib ketadi. Og'zi-burnidan qon oqadi*). Shnel, shnel, kameraga olib borib tashlang. Uning jag'i chiqib ketdi, endi gapira olmaydi. 1-may kuni otib tashlansin!

*Ikkita soqchi Sharifni sudrab, olib chiqib ketadi.*

**Obershturmbanfyurer** (*asabiylashib, o'ziga o'zi gapiradi*). Umrim bino bo'lib, bunchalik jasoratli, chidamli askarni ko'rмаган edim. Tirnoqlarini qo'porib tashlasak ham, gapirmadi. Agar bizning askarlarimiz ham, mana shunday qahramon, aqlli, bilimli, tilbilich bo'lganlarida, allaqachon g'alaba qilgan bo'lardik (*asabiylashib, baqirib gapiradi*). Butun boshli eshelonni portlatishdi-ya! Bizning askarlarimiz qayoqqa qarayapti?! Tumshug'ining tagidagi eshelonni qo'riqlay olishmadi. Landavurlar!

*Obershturmbanfyurerning qol'llari qaltirab, stol ustida turgan grafindan suv olib ichadi.*

### IX KO'RINISH

*1945-yil 25-aprel. Italiya partizanlari San-Vettore qamoqxonasi bostirib kiradi.*

**Birinchi partizan** (*nemis kiyimida kamerada yotgan Sharifni ko'rib*). Bu nemis askari-ku! Nemislarni o'zlarinikini qamashibdi-da.

**Ikkinci partizan.** Qo'y, unga tegma! Qiynashgan shekilli. Uning holi yo'q. O'rnidan tura olmaydi.

*Sharifning jag'i o'rnidan chiqqani uchun gapira olmaydi. Shu payt kameraga Yetorina kirib keladi.*

**Yetorina.** Alessandro, Alessandro! Partizanlar otryadan, u razvedkachi-ku! Uni taniyman. Yordam beringlar, olib ketamiz. (*Sharifning boshini ko'tarib gapiradi*)

Azizim... rosa qiynashibdi-ku, ablahlar. Tirnoqlaringni ham qo'porishibdi (*Yetorina yig'lab yuboradi*). Ko'taringlar, kasalxonaga olib boramiz.

Alessandro, biz g'alaba qildik. Italiya ozod etiladi.

*Uni ikkita partizan ko'tarib, olib chiqib ketadi.*

**(Davomi bor)**

**Ra'no ODILOVA,**  
**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi**



Faxriylar faxrimiz!

# YURTING UCHUN XIZMAT QILISH HAM BAXT EKAN!



Yaqindagina Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining shonli 33 yilligi tantanalar bilan nishonlandi. Milliy armiyamiz zamon bilan hamnafas rivojlanmoqda. O'tgan yillarda davomida ulkan o'zgarishlar, yangilanishlarga guvoh bo'ladi. Bugun har qancha g'urur tuysak, faxrlansak arziriladi. Qurolli Kuchlarimiz bor.

Bu o'z-o'zidan barpo bo'lib qolgan emas. Qardosh deb bilganimiz xalqlar ham endigina mustaqillik yo'liga kirgan Vatanimiz oldida turgan buyuk ishlarga ishonchszilik bilan qaragan edi. Professional asosdagi milliy armiyamizni tashkil etish oson bo'lmagan. G'oyat murakkab bir yo'l bosib o'tildi. Va bu yo'l ko'plarning shon-sharaf yo'li bo'lib qoldi.

Iste'fodagi tibbiy xizmat polkovnigi Safarali Bekov ham birinchilar qatorida yurtimiz harbiy tibbiyotini rivojlantirishga bel bog'lagan fidoyilardan sanaladi. E'tiborli tomoni shundaki, harbiy shifokor mas'uliyatli vazifasidan ortib, ijod qilishga ham vaqt va imkon topa oldi. Bu haqda taniqli adib O'tkir Hoshimov uning hikoyalari to'plamiga yozgan so'zboshisida hayrat bilan ta'kidlab o'tgan edi. Safarali Bekovning ijodi munosib baholanib, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilingan.

Yillar yeldirim. Iste'fodagi tibbiy xizmat polkovnigi Safarali Bekov 70 yoshni qarshilayapti. Ayni kunlarda ham qizg'in ijod bilan band, romanlari dunyo yuzini ko'rish arafasida.

Quyida uning bolaligi, bolalik orzulari, harbiy xizmati, xotiralari bilan bog'liq suhabatidan bahramand bo'lasiz.

## ONAM

- Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani Toshto'g'on qishlog'ida tug'ilganman. Barcha qishloq bolalari kabi uy yumushlarida ota-onamga yordamchi bo'lganman. Mol-hol, dala ishlaridan ortib, sport bilan shug'ullanishga vaqt topganman.

Kattalar qatori dala ishlarida band bo'lar edik: may oyidan boshlab dekabr oyiga qadar. Futbol o'yashni yaxshi ko'rardim. Voleybol, kurashda o'zimni ko'rsatgim kelardi. Shaxmatshashka musobaqalarida ham faol qatnashganman.

Insonning shakllanishida maktabdag'i ustozlarning o'mi katta. Ona tili va adapiyot o'qituvchimiz Jo'rabej Hojibekov hayotimda o'chmas iz qoldirgan. Darslarini maroq bilan tinglardik. Aynan uning maslahati bilan she'rlar mashq qila boshlaganman. Maktabda meni "shoir bola" deyishlaridan g'ururlanar edim. Ustoz bizga adapiyotni sevdirdi. Maktab va jamoa xo'jaligi kutubxonasi dengi deyarli barcha kitoblarni o'qib chiqdim. O'n besh-o'n olti

yoshlarimda yozuvchi bo'lish orzusi bilan yashardim.

Shunday orzular qanotida uchib yurganimda kasal bo'lib qoldim. Bir necha oy kasalxonada yotdim, sanatoriylarda sog'lig'imni tikladim. Men tuzalganimdan keyin onam og'ir kasallikka chalindi. Qanday qilib onamning dardiga malham bo'lishni bilmas edim. Uning umidvor nigozlariga termilib, "Shifokor bo'lib, o'zim sizni davolayman, tuzalib ketasiz!" deb tasalli bera oldim, xolos. Ammo... u mening shifokor bo'lgan kunlarimni ko'rmasdi. O'sha yotganicha qaytib o'nglanmadi, kasalxonada vafot etdi.

Onamning vafoti bilan havoyi orzularim ham meni tark etdi. Shifokor bo'lishga qat'iy ahd qildim. Maktabni bitirgan yilim Toshkent davlat tibbiyot institutining (hozirgi Toshkent tibbiyot akademiyasi) Davolash fakultetiga o'qishga kirdim.

## OTAM

- 1938-yilda harbiy xizmatga chaqirilgan otam Ibrayim Bekov 9 yil deganda uyiga qaytgan. U ikkinchi jahon urushining bor azob-ucubatini totgan. Ko'p marta yaralanib gospitallarda davolanganini, harbiy shifokorlarning insoniyliklarini gapirib berardi. Ular haqda to'lqinlanib, hurmat bilan so'zlardi.

Uning xotiralari menga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Harbiy shifokor bo'lishni maqsad qildim. To'rtinchisi kursni tugatib, Saratov tibbiyot institutining Harbiy fakultetida o'qishimni davom ettirdim.

qo'shig'i yangrasa deng. Radio ovozini balandlatib, yig'ilishni to'xtatdim... Qo'shiqdan so'ng davom ettirdik.

## VATAN XIZMATIDA

- Boshqalarda qanday, bilmadim, bizda kindik qoni to'kilgan joy bilan bog'liqlik kuchli. Shuning uchun qayerda bo'sak, tug'ilgan joyimizga intilaveramiz. Sobiq Ittifoq mavjud kezlarida xizmatni yurtimizda o'tash istagi kuchli bo'lган. O'shanday paytlari bu istak-harakatlarimiz osongina chippakka chiqarilgan, "Pensiyaga chiqqach, istagan yeringa ketaver", deya.

Nihoyat kutilgan qutlug' kunlar ham keldi. Vatanimiz mustaqil bo'ldi. Endi tanlov bizniki edi! Yurting uchun xizmat qilish ham baxt ekan. 1992-yildan 2002-yilgacha Mudofaa vazirligi kadrlar boshqarmasida xizmat qildim. Dastlabki yil armiyamizda milliy kadrlar olti foizni tashkil qilar edi. Yillar kechdi, qiyinchiliklar ortda qoldi. Bugungi kunlar milliy armiyamizning tamal toshi qo'yilayotgan eng murakkab bir davrda xizmat qilganimdan, yurtga kerakli bo'lganimdan g'urur tuyaman.

## ARMON

- Armonim bor. Yetuk harbiy jarroh bo'lmoqchi edim. Bir necha amaliyotlarni muvaffaqiyatli yakunladim. Biroq 1988-yilda olgan jarohatim tufayli jarroh bo'lish... armonga aylandi. Inson mukammallikka intiladi. Shifokor inchunun. Yaxshi jarroh bo'lishim mumkin edi.

## IJOD ZAVQI

- Qachonlardir, olis bolalikda yozuvchi bo'lish orzusi bor edi. O'sha orzu ba'zan yuragimni bezovta qilar edi. Tuyg'ularim she'rlarga ko'chdi. Yozish istagini xizmat tashvishlariga alishdim. Biroq shunday kun keldi, bu istak yuzaga chiqdi. Yoza boshladim. "Begona", "Begonalik", "Cho'qqiga yo'li", "Bo'sa", "Ota", "Vatanning zirhli qalqoni", "Sadoqat", "Egilgan boshqo" asarlarim dunyo yuzini ko'rdi.

2021-yil hayotimda o'chmas iz qoldirdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindi.

Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning xonadonlariga qarindoshchiligidan bois tez-tez borib turar edi. Bu yerda adabiyotimizning ko'zga ko'ringan namoyandalari yig'ilib turardi. Ularning suhabatidan bahramand bo'lish nasib etdi. Yozuvchi O'tkir Hoshimov bilan shu xonadonda tanishdik. Qimmatli maslahatlarini oldim.

Odil Yoqubov, O'lmas Umarbekov, Mixail Sholoxov, O'tkir Hoshimov asarlarini sevib o'qiganman. Ba'zan o'sha yoshlik zavqini his etish uchun qayta varaqlayman. Kitob o'qish allaqachonlar kundalik ehtiyojimga aylangan.

## YOSH HARBIY SHIFOKORLARGA

- Sadoqatli bo'ling, derdim. Shifokorlik o'ta mas'uliyatli kasb, ba'zan inson hayot-mamoti qo'lingizda bo'ladi. Kasbingizni mukammal egallang, bilimlaringizni mutazam oshirib boring. Odamlarni seving. Ko'p kitob o'qing, mutolaa qalbni tozartiradi, yaxshilikka chorlaydi. Toza qalb bilan odamlarning muhabbatini qozonasiz.

**Inobat IBROHIMOVA,  
"Vatanparvar"**

Nazm va navo

# Buyuk ma'naviy meros sohiblari



Ayni kunlarda mamlakatimiz bo'ylab buyuk mutafakkir, so'z mulkining sultoni Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi hamda o'zbek mumtoz adabiyotining yana bir yirik vakili, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi keng nishonlanmoqda.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari boshqaruvi apparatida ham ikki buyuk bobokalonimizning hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Nazm va navo" kechasi tashkil etildi.

O'zbekiston davlat drama teatrining tanqli ijodkorlari ishtirok etgan kechada Alisher Navoiy hamda Mirzo Boburning hayot yo'li, qoldirgan boy ilmiy-adabiy merosi xususida so'z

yuritilib, ularni mutolaa qilish inson ruhiyati hamda ma'naviy olamiga chuqur ta'sir ko'rsatishi bilan birga, yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish orqali kamolotga yetaklashi ham ta'kidlab o'tildi.

Teatr ijodkorlari tomonidan Alisher Navoiyning to'liq turkiy tilda yaratilgan "Xamsa" asari tarkibiga kiruvchi "Sab'ayi sayyor" va "Saddi Iskandariy"

dostonlari asosida namoyish qilingan sahna ko'rinishlari, ayniqsa O'zbekiston xalq artisti Elyor Nosirov ijro etgan Iskandar monologi tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

– Hozir sahnada ham aytib o'tdim, hazrat Alisher Navoiy, Mirzo Bobur ijodi bizning katta merosimiz, aslida. Shu sababli ularga juda katta hurmat-e'tibor bilan qarashimiz kerak. Navoiyning asarlari jahon durdonalari qatoriga kiritilgan. Uning buyukligi ham shunda bo'lsa kerakki, oradan qancha zamonlar, necha asrlar o'tmasin, bu asarlar hanuzgacha o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda va aminmanki, bundan keyin ham xuddi shunday bo'lib qoladi, – deydi O'zbekiston xalq artisti Elyor Nosirov.

Tadbir davomida yosh, iste'dodli aktyorlar tomonidan Boburning yurt sog'inchi ila yo'g'rilgan ruboiyalaridan namunalar o'qilib, g'azallariga bastalangan qo'shiqlar zo'r mahorat bilan ijro etildi. Garchi sarhadlarimiz posbonlari bu ijod namunalarini maktab davrlaridayoq mutolaa qilgan bo'lsa-da, san'atkorlar talqinida go'yo Mirzo Bobur sahnada jonlanib, tilga kirgandek tasavvur uyg'otdi va har bir tinglovchini Vatan qadrini yanada chuquroq hamda teranroq anglashga undagandek bo'ldi.

– Istalgan kasb egasi bo'lsin, u iqtisodchi bo'ladi, tibbiyot sohasi vakilimi yoki harbiy xizmatchimi, bundan qat'i nazar, Navoiyni, Boburni o'qisa, o'zi

bilib-bilmagan holda qalbiga yorug'lilik, nur kirib kela boshlaydi. Chunki bu asarlarda adolat, halollik, sabr-toqat va fidoyilik kabi yuksak axloqiy qadriyatlar mujassam. Ular o'zining betakror uslubi va musiqiy ohangi bilan o'quvchiga estetik zavq bag'ishlab, insonnинг go'zallikni anglash qobiliyatini yanada rivojlantiradi, – deydi aktyor Shukrullo So'fiyev.

Albatta, bu kabi tadbirlarning tashkil etilishi chegarachilarimiz qalbini g'ururga to'ldirishi bilan birga, buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini yanada chuquroq o'rganishlariga imkon yaratishi, shubhasiz.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari

Alplar safidagi ayollar

# QADDI NOZIK,

## *qalbi olov go'zallar*



Kichik serjant  
Xumora ALIMOVA



Kichik serjant  
Aziza ORTIQOVA



Kichik serjant  
Sevara AKABURXANOVA

*Qaddingizga yarashar harbiy libos  
Ko'ksingizda Vatan ishqisi mujassam.  
Sadoqat-u ahdingiz o'zlikka xos,  
Ne chorlov bor, barchangiz sobitqadam.*

2024-yili Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlilik va idoralar hamda Respublika Harbiy prokuraturasi hamkorligida olis hududlardagi maktab o'quvchi-qizlari o'rtaida "Men vatanparvarman!" shiori ostida ko'rik-tanlovlар amalga oshirildi. Biz yil davomida rejalashtirilgan vatanparvarlik ruhidagi ushbu tadbirlarda ishtiroy etib, maqolalar tayyorlaganmiz.

O'quvchi-qizlarning bilim va iqtidorlarini yuzaga chiqarish, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash, harbiy kasbga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilgan bu ko'rik-tanlovda harbiy qismida faoliyat yuritayotgan harbiy xizmatchi ayollarning o'mni qay darajada muhim va yuqori ekaniga guvoh bo'lganmiz. Ular o'quvchi-qizlarga ustozlik qilib, ma'lum harbiy tayyorgarlik bo'yicha shunday saboq berganki, ko'rik-tanlov davomida ishtiroychilarining nafaqat bilim va iqtidori, balki sahnadagi harbiycha harakatlari olqishlarga sazovor bo'ldi. Ushbu maqolamizda mas'uliyati xizmatini namunali uddalash barobarida o'quvchi-qizlarning "Men vatanparvarman!" bellashuviga tayyorlagan, mana shu harbiy libos malikalari haqida so'z yuritamiz.

### FIDOYI HARBIY XIZMATCHI, JONKUYAR USTOZ

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shnlari qo'mondonligi tasarrufidagi harbiy qismida xizmat qilayotgan kichik serjant Xumora Alimovaning g'ayrat va shioatiga ko'rik-tanlov davomida havas qilganman. U ustozlik qilgan guruhdagi o'quvchi-qizlar "Men vatanparvarman!" bellashuvigida har bir shartda yuqori o'rnlarga sazovor bo'lgan. Albatta, qizlarning erishgan yutuqlarida kuyunchak va talabchan ustozlarining shaxti sezilib turdi. O'quvchi-qizlar saf bo'lib turish, qadam tashlash, murojaat qilishda harbiy ustozlaridan qolishmasdi. Harbiy libos qaddiga yarashgan, go'zal chehra, go'zal muomalali Xumora to'g'risida maqola tayyorlashga qaror qildim.

Kichik serjant Xumora Alimova Angren shahrida istiqomat qilayotgan Ergash aka va Shohida opa voyaga yetkazgan uch malikaning o'tanchasi. Kasb-hunar kollejini

bitirib, Angren issiqlik elektr stansiyasiga ishga kirish uchun suhabatga borgan qiz kiraverishdagi postda turgan harbiy libosdagi qizlarni ko'rib, qalbida o'zgacha havas uyg'ondi va qat'iy qarorga keldi: "Albatta, harbiy xizmatchi bo'laman!" Ma'lum sinovlardan so'ng uning maqsadi ijobjiy hal etildi. Mana, yaqin to'qqiz yildirki, kichik serjant Alimova o'z vazifasiga sidqidildan yondashib, namunali harbiy xizmatchilar safida faoliyat yuritmoqda.

- Kasbim bilan doim faxrlanib kelganman, - deydi Xumora xizmati haqida so'z ketar ekan. - Ilkimdagi vazifani o'zlashtirishimda iste'fodagi serjantlar Ra'no Qoraxonova va Nigina Azizova ustozlik qilishdi. Harbiy xizmatda uzoq yillar namunali xizmat qilgan, hayotda va oilada o'rin topgan ustozlarimdan har tomonlama o'rnak olishga harakat qildim. Dugonalarim kichik serjantlar Gulnoza G'aybulayeva, Sevara Akaburxanova va Mohinur Rabbanova bilan ustozlarimning saboq va o'gitlariga amal qilib, burchimizni hamisha a'lo darajada o'tashga intilamiz. Meni chekka huddillardagi maktab o'quvchi-qizlarini ko'rik-tanlovgaga tayyorlashga jo'natsihanida xursand bo'ldim. Ulardagi intilish, talant va iqtidorga havas qilasan kishi. Ko'zları yonib turgan g'ayratli qizlarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ichki qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, vatanparvarlik tuyg'usi va harbiy sohaga bo'lgan qiziqishini oshirishga ulush qo'shganidan mammunman. Ayniqsa, o'quvchilar har gal "Ustoz", deb murojaat qilganida ko'nglim tog'dek ko'tarildi. Maqsadim - hayotda va mas'uliyatli kasbimda o'rin topib, komandirlarim, ota-onam va ustozlarim ishonchini oqlash.

Hayotdagi shiori "Hamisha to'g'ri yo'lda olg'a intilish" bo'lgan Xumoraning ezgu niyatlarini birin-ketin amalga oshayotgani

quvonchli holdir. Eng asosiysi, u oila qurish ostonasida turibdi. Lavhamizning go'zal qahramoniga bu boroda ulkan baxt tilaymiz. Eng asosiysi, kichik serjant Xumora Alimova kabi olovqalb qizlarimiz harbiy sohada qad rostlab, Vatanimiz tinchligiga munosib ulush qo'shaversin.

### KASBIM – FAXRIM, OILAM – BAXTIM

Kichik serjant Aziza Ortikova Sirdaryo viloyatining Shirin shahrida voyaga yetgan. Oiladagi farzandlarning kattasi bo'lgan Azizaga ota-onasi Abdumalik aka va Feruza opa yorug' umidlar bog'lagani aniq. Zero to'ng'ich farzandga yaqinlariga tayanch, singil va ukalariga o'rnak bo'lishdek zalvarli mas'uliyat yuklandi. Ota kasbini tanlab, Shirin shahridagi kasb-hunar kollejining buxgalteriya yo'nalishini bitirgan qahramonimiz harbiy qismiga hisobchi bo'lib ishga kirdi. Uning harbiy sohaga bo'lgan qiziqishi shundan boshlandi. Harbiy libosdagi ayollar safida bo'lishni niyat qildi. Sinovlarda ortga chekinmagan qiz oradan to'rt yil o'tib, maqsadiga erishdi, harbiy libosda texnik nazoratchi sifatida xizmat boshladи. Albatta, maqsadiga erishishning o'zi bo'lmaydi, bilim, harakat, iroda va jismoniy chiniqqanlik muhim ahamiyat kasb etadi. Aziza buning uddasidan chiqdi.

Baxt qo'shaloq keladi, deyishadi. Harbiy libos kiyaganidan so'ng ko'p o'tmay, hayotida muhim o'zgarish yuz berdi. Uni tushunadigan, kasbini hurmat qiladigan o'zi kabi harbiy soha egasi III darajali serjant Doniyorjon Ortikov bilan taqdir yo'llari bog'landi, baxtli oilalar safiga qo'shildi. Ayni fursatda ularning sevimli dilbandlari - Dilso'z va Sa'diyaxon xonadon quvonchi, hayotlari mazmuniga aylangan. Kichik serjant Aziza Ortikova esa kasbida o'rin topgan harbiy xizmatchilar safida.

- Inson kasbini sevsа, har qanday qiyinchilikni yenga oladi, - deydi qahramonimiz. - Oilamni, xizmatimni birdek uddalashga harakat qilaman. Xizmat joyimda Vatan himoyachisiga aylansam, oilada rafqa va onaman. Barcha ayollar kabi xonadonni orasta saqlash, taomlar tayyorlash, farzandlarim bilan vaqt o'tkazish yoxadi. Maktabdagи o'quvchi-qizlar bilan ishlaganimda esa katta mas'uliyatni his qildim. Qizlarning sahnadagi har bir chiqishidan, muvaffaqiyatidan faxrlandim. Ular orasida harbiy sohaga qiziqqanlar talaygina. Harbiy xizmatchi ayol sifatida ularning hayotida iz qoldirgan bo'lsam, bundan xursandman.

### INTILISH VA MAQSADGA ERISHISH!

Harbiy libosdagi ayollar bilan suhbatlashsangiz, beixtiyor kayfiyattingiz ko'tariladi. Axir mas'uliyati va majburiyati yuqori bo'lgan harbiy kasbni uddalash, oilasini namunali harbiy oilalar safida asrash o'ziga xos zahmat talab etadi. Kichik serjant Sevara Akaburxanova ham bugun mana shu qaddi baland harbiy libos malikalari safida. Uning sevgan sohasida qad rostlashi oson kechmagan.

Bekobod shahridagi tibbiyot kollejida tahsil olayotgan qiz ota-onasiga o'z orzusi haqida so'z ochdi:

- Dadajon, onajon, ruxsat bersalaringiz, harbiy sohada faoliyat yuritmoqchiman.

- Harbiy qism tibbiyot punktiga hamshira bo'lib ishga kirmoqchimisan? - qiziga savol nazarli bilan qaradi Shavkat aka.

- Hamshira bo'lishim shart emas, harbiy ayollar turli vazifalarda xizmat qiladi.

- Hademay, hamshiralik diplomini qo'liga olasan, - hayratini yashirmadi Ra'no opa. - Tinchgina shifoxonada ishlasang bo'lmaydimi, qizim? Harbiylik yigitlarga yarashadi, ayol kishining bu kasbda ishlashi osos emas. Qiz bola bo'lsang, ertaga oila qurishing bor.

- Rozi bo'lib, duo qilib tursalaringiz, barchasini uddalayman, onajon!

- Mayli, qizim, - Sevaraga mehr bilan boqdi otasi, - uddalasang, qarshi emasman, bolam! Faqat ishonchimizni oqlasang bo'lgani...

Sevara harbiy sohaga kirish uchun harakat boshladi. Ezgu maqsadga erishish yo'lida ortga chekinishni or deb bilgan qiz bir yil deganda, harbiy xizmatchilar safiga qo'shildi. Mana, shunga ham o'n yildan oshdi. Bugun u zimmasidagi majburiyatni a'lo darajada uddalab kelayotgan harbiy xizmatchi, harbiy oilanling jonkuyar bekasi. Milliy gvardiyada xizmat qilayotgan safdar Doniyorxon Akaburxanov bilan oila qurib, Nursulton va Sumayadek shirin farzandlarning voyaga yetkazmoqda. Shuningdek, pazandachilik va chevarchilikda unga yetadigani yo'q.

Bir so'z bilan atyganda, maqolamizda tilga olinning harbiy libos malikalari mas'uliyatlari xizmati davomida bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan, faxriy yorliqlar, minnatdorlik va tashakkurnomalarga ega bo'lib kelayotgan soha fidoyilaridir. Ularga bildirajak tilagimiz: yovqurlarga yelkadosh bo'lishdek zahmatli va sharafli xizmatingiz hamisha yuksak e'tiroflarga sazovor bo'lsin!

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"

Xorij tajribasi

# AQSHDA REZERVDAGI OFITSERLARNI TAYYORLASH

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari armiyalarida rezervdagagi ofitserlarni tayyorlash uslubiyati va mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, o'quv markazlarida tizimni takomillashtirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.



Amerika oliy ta'limga muassasalarini qoshidagi birinchi harbiy tayyorgarlik kurslari yaratilishining tarixiy tajribasi XIX asr boshlariga to'g'ri kelib, birinchi kurs 1820-yilda o'z faoliyatini boshlagan. Virjiniya va Janubiy Karolina shtatlarida harbiy tayyorgarlik kurslari 1839- va 1842-yillarda joriy etilgan.

AQShda fuqarolar urushi davrida qo'mondon kadrlarning tayyorgarligiga ehtiyoj o'sdi. 1862-yilda Prezident Linkoln tomonidan ayrim fuqaroviylar oliy ta'limga muassasalarida harbiy tayyorgarlik qonuniylashtirildi. Oliy ta'limga muassasalarini bitiruvchilarining ko'pchiligi 1862-yilden boshlab, regulyar qo'shinlarda ofitser sifatida xizmat qilishi davomida harbiy tayyorgarlik kursi bo'yicha tayyorgarlikdan o'tgan.

Ikkinci jahon urushi davrida amalagi armiyaga qo'shindan tashqari, tayyorgarlikdan o'tgan 100 mingdan ortiq oliy ta'limga muassasalarini bitiruvchilarini ofitser sifatida yuborilgan. Bundan tashqari, Koreyadagi urushda qatnashish uchun 120 ming rezervdagagi ofitser haqiqiy xizmatga chaqirilgan, ularning ko'pchiligi qo'shindan tashqari, tayyorgarlik kurslarining bitiruvchilarini edi.

1973-yilda AQSh Qurolli Kuchlarining to'liq professional armiyaga o'tishi ofitserlarni tayyorlash muammosiga nazariy qarashlar va amaliy tadbirlar masalalari yechimiga yangicha qarashlarning yuzaga kelishiga xizmat qildi. Harbiy ta'limga muassasalarida ofitserlarni tayyorlash uchun tanlab olishda muammo paydo bo'ldi. Ofitserlarni tayyorlashning

nazariy va amaliy muammolarini o'rganib chiqib, "ixtiyoriy butlash" prinsipini taklif qilish, AQSh Kongressi raisi o'rinosbasari Klements boschiligidagi komissiya tomonidan amalga oshirilgan. Amerikalik mutaxassislar Britaniyaning professional armiyaga tayyorgarligi tizimining paydo bo'lishi va rivojanishi, shuningdek harbiy tayyorgarlik tizimini o'rganib, ana shu xulosaga kelgan. Bu esa o'sha davrda Britaniyada ofitserlarni tayyorlash tizimi yaxshi rivojlanganidan dalolat beradi.

Tadqiqotchilarning Qurolli Kuchlarni qo'mondon kadrlar bilan to'ldirish muammosini o'rganishga oid izlanishi natijalarini qo'shindan tashqari, tayyorgarlikdan o'tgan ofitserlarni bilan to'ldirish imkoniyati hamon muhimligicha qolaytganini ko'rsatdi. XX asrning 80-yillari o'rtasida Quruqlikdagi qo'shinlarda umumiyyat hisobda 8,5 ming ofitserga ehtiyoj sezildi. Vest-Poynt harbiy bilim yurti o'rtacha 700 ofitserni tayyorlab berdi, ofitserlikka nomzodlar maktablarini xuddi shunday 700 gacha under-ofitserlarni, fuqaro oliy ta'limga muassasalarini harbiy departamentlari

7 mingdan ortiq bitiruvchini yetkazib berdi.

Talabalarning harbiy tayyorgarligi mazmunida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Ularning nazariy harbiy-kasbiy tayyorgarligi darajasiga talab kuchayib, o'quv-ilmiy faoliyatga keng jalb qilina boshladи. Ofitser tarkibiga nomzodlar, ayniqsa murakkab harbiy-hisob mutaxassislariga qo'yildigan talablar orasida birinchi bakalavr darajasini, keyinchalik magistr, falsafa doktori ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiya himoya qilish lozimligi ko'rsatildi. Shtabda xizmat qiluvchi mansabdar shaxslar, maxsus xizmatlar oliy ofitserlarni tarkibi kerakli tayyorgarlikdan, kurslardan o'tishi hamda magistr yoki falsafa doktori darajasini olishi kerakligi belgilab qo'yildi. Bunday tayyorgarlik asosan fuqaro oliy ta'limga muassasalarida, ilmiy tadqiqot hamda tajriba-sinov konstrukturlik ilmiy tadqiqot ishlari markazlarining maxsus departamentlari tomonidan olib borilgan.

XX asrning 80-yillari o'rtalarida fuqaro oliy ta'limga muassasalarini qoshidagi qo'shindan tashqari, tayyorgarlikdan o'tgan bitiruvchilar umumiy ofitserlarni tarkibining 40 foizini

va quruqlikdagi regulyar qo'shinlarning 25 foizini generallar tashkil qilgan. Quruqlikdagi qo'shinlarning o'rtacha 8-9 ofitserlardan har 7 nafari fuqaro oliy ta'limga muassasalarida qo'shinden tashqari, harbiy tayyorgarlikda ta'limga olib ofitserlardir. 1986-yilda Qurolli Kuchlarni ofitserlarni bilan butlashda fuqaro oliy ta'limga muassasalarini tizimi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Prezident qoshidagi (*shaxsiy tarkib bo'yicha*) maxsus komissiya va AQSh Kongressi tomonidan "Rezervdagi ofitserlarni tayyorlash xizmati", "Ofitserlarni tayyorlash xizmati" deb qayta nomlandi. Yuqorida taklifga asosiy argument sifatida fuqaro oliy ta'limga muassasalarini bitiruvchilarining yarmi regulyar qo'shinlarda xizmat qilganini ko'rsatish mumkin.

1990-yillardan hozirgi vaqtgacha (*faqat Quruqlikdagi qo'shinlar uchun*) 350 ta oliy ta'limga muassasasi harbiy tayyorgarlik kursi, shu bilan birga 280 ta universitetda (*ularning 2 tasi harbiy universitet va 51 ta sirtqi ta'linda*), 65 ta institut va oliy kollejlarda, 4 ta harbiy institut, shuningdek 3 ta o'rta va 1 ta oliy maxsus harbiy kollejda ofitserlarni tayyorlanadi. Mazkur ta'limga muassasalar AQSh Quruqlikdagi qo'shinlar, rezervdagi qo'shinden tashqari, ofitserlarni tayyorlash qo'mondonligi tasarrufida.

Quruqlikdagi qo'shinga kiruvchi Harbiy ilmiy departament (*Harbiy kafedra*)lar 350 ta oliy ta'limga muassasasida joylashgan. 152 ta kollej va universitetda faoliyat yuritayotgan Harbiy havo kuchlarining departamentlarida boshqa oliy ta'limga muassasalarini talabalari ham harbiy tayyorgarlikdan o'tishi mumkin, faqat bu ish Harbiy kafedrasiga va fakulteti bor ta'limga muassasalarini bilan hamkorlik bo'yicha kelishuv asosida olib boriladi. Qo'shinden tashqari, tayyorgarlik kurslari Harbiy havo kuchlari mutaxassisligi bo'yicha oliy ta'limga muassasalarining 600 dan ortiq talabalari o'qyidi. Harbiy dengiz kuchlari va dengiz piyodasi ofitseri sifatida talabalarning harbiy tayyorgarligi AQShning 65 ta fuqaro oliy ta'limga muassasasida tashkillashtirilgan. Yuqorida ta'kidlangan barcha ta'limga muassasalar, AQSh Quruqlikdagi qo'shinlar qo'shinden tashqari, rezerv ofitserlarni tayyorlash qo'mondonligiga bo'yusnadi. Oliy ta'limga muassasalarini hudud bo'yicha AQShning barcha shtatlarida joylashgan.

Harbiy tayyorgarlik tizimining nazariy rivojanishi 3 ta asosiy bosqichda olib boriladi: umumjamiyat - siyosiy hayotning turli tarixiy davrlari hisobga olinishi; harbiy qurilish o'zgarishlarining nazarda tutilishi; harbiy tayyorgarlik tizimining nazariy qarashlari.

Pragmatik va moslashuvchan tizimlarni boshqarish, kuchli moddiy-texnik bazani yaratish, zarur mutaxassislariga tayyorlash asosiy masala sanaladi. Hozirda mayjud bo'lgan zamonaqiy Amerika harbiy tayyorgarlik tizimida vaqt parametrlari AQSh Qurolli Kuchlarining kadrlar salohiyatini tayyorlash samaradorligini belgilaydi.

Qo'shma Shatlarda rezervdagi ofitserlarni tayyorlash tizimining kuchli tomonlari professional Qurolli Kuchlar, avvalambor, tarmoqlangan tashkiliy tuzilma va uning kuchli, rivojlangan moddiy-texnik bazasi, shuningdek moslashuvchan, amaliy va maqsadga muvofiqligidadir.

Rezervdagi ofitserlarni tayyorlash o'quv dasturlari mazmuni tahlil qilinganda, ko'proq harbiy ta'limga muassasasining ixtisoslashuviga hisobga olinganini ko'rish mumkin. Dasturlar asosan harbiy-hisob mutaxassisligi bo'yicha ziarur harbiy va harbiy-texnik fanlari o'z ichiga oladi, chunki talaba universitetda olib borilgan umumiy ta'limga bazasi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki birinchi bakalavr darajasini olish uchun yetarli deb hisoblanadi va birinchi ofitser unvonini olishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, AQSh ta'limga muassasalarida harbiy tayyorgarlik tizimining tashkiliy tuzilmasi uzoq tarixiy tajribaga ega.

**Polkovnik O. ANARBAYEV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
kafedra boshlig'i, dotsent**

Buxoro tarixi bitmas-tuganmas xazina. Qariyb uch ming yillik shaharsozlik an'analari va me'morchilik izlarini o'zida yaxshi saqlagan Buxoro bugun ham o'tmish yodgorliklari bilan tarixdan so'zlayotir. Qadimiy kent haqida rivoyat, afsonalar ko'p. Ammo ularning hammasini ham ilmiy asosga ega haqqoniy tarix, deya olmaymiz. Aniqlik va to'g'rilik asl voqelikni bilish, tarixni bexato, boricha talqin qilishga yordam beradi.

Shaharsozlikda me'morchilikning muhim elementlaridan biri darvozalar hisoblanadi. Tarixiy manbalarda darvoza – qopqa, kapug', kapi, dar, tabaqa nomlari bilan tilga olinadi. Darvozalar mudofaa nuqtasi, nazorat punkti, bojxona posti, kirib-chiqishni tartibga soladigan obyekt, statistik ma'lumot olish markazi singari muhim vazifalarni bajargan. Shaharda bo'ladijan har qanday ko'ngilsiz hodisa yoki yaxshi xabar bevosita darvoza bilan bilan bog'liq bo'lgan. Yoki shahardagi har qanday holat orqali darvozabonlar faoliyatiga baho berilgan.

Ba'zan xalqimiz, hatto ziyorolar orasida Buxoro darvozalari soni 11 tami yoxud 12 ta degan savollar o'rtaq tashlanadi. Albatta, mazkur masalada manbalar, ilmiy-tarixiy adabiyotlar, arxiv ma'lumotlaridan xabardor tarixchilar fikri muhim ahamiyatga ega. Shaharsozlikdagi muhim element sanalgan devor, darvoza, ark, saroy, hammom, tim va toqlar soni aniq bo'lib, shahar haqidagi deyarli barcha manbalarda bular qayd etiladi. Hozirgacha Toshkent shahrida 12 ta, **Xiva Ichangal'ada 4 ta darvoza** bo'lgani yaxshi ma'lum. Xuddi shunday **Buxoro shahri darvozalari 11 ta** bo'lgan. Bu inkor etib bo'lmaydigan haqiqat. Sababi darvozalar nomi, joyi, surati va ko'rinishi ma'lum.

**ILK O'RTA ASRLARDA** Shahriston 18-20 gektar hududni egallab, 7 darvozali bo'lgan. Temirdan yasalgan darvozalar Darvozayi bozor, Darvozayi Shahriston, Darvozayi Bani Sa'd, Darvozayi Bani Asad, Darvozayi Kabiriya, Darvozayi Hafs, Darvozayi Nav nomlari bilan atalgan. Arab tarixchilari Istaxriy va Ibn Xavqallar darvozalarni Al-Madina, Nur, Xufre, Al-Xadid, Al-Ko'handiz, Muhra, Bani Sa'd sifatida qayd etgan. Keyinchalik shahar devori kengaytirilishi natijasida darvozalar soni oshib borgan.

Ayimlar Ark darvozasini ham shahar darvozalariga qo'shib, 12 deb atashadi. Bu mutlaqo xato hisoblanadi. Ark qal'asining devori boshqa bo'lib, uning o'zi 2 darvozali bo'lgan. Ark (*hisor*)ning g'arbiy darvozasi - Registon, sharqiy darvozasi - Go'riyon deb nomlangan. Hozirda faqat Registon darvozasi saqlangan. Siyovush Vali dafn etilgan Go'riyon darvozasi esa

# BUXORONING DARVOZASI

buzib tashlangan va ustidan devor tiklangan.

Har bir darvozani o'nga yaqin sarbozlar va ularning rahbari o'nboshi boshqargan. Tunda 8-10 saat davomida darvozalarning xavfsizligini to'liq ta'minlagan. Darvozalar qulflangach, darvozabon kalitlarni shahar qo'riqlash xizmati – mirshabxonaga jo'natgan. So'ogra shogirdpeshalar orqali mirig'azab deb ataluvchi bosh mahkamaga yuborilgan. Har kuni ertalab saat 6-7 atrofida darvozalar ochilib, soqchilarning navbatchilik xizmati almashib turgan. Mazkur jarayonning nazorati bevosita qushbegi (*bosh vazir*) ixtiyorida bo'lgan. Chunki qushbegi, o'z navbatida, shahar hokimi hisoblangan. Shuning uchun har kuni kechqurun shaharning kechasi qulflanadigan darvozasi kalitlarining olib kelinishi va ertasiga ertalab yana darvozabonlar boshlig'iqa qaytarilishini nazorat qilgan.

Kalitlar darvozaxonada emas, balki mahkamada yoki qushbegi idorasida saqlanishiga sabab xoinlik, sotqinlik, dushman tomona yon bosish, shahar darvozalarini ochib berish kabi holatlarining oldini olishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Chunki poytaxt shahar mudofaasi hamisha muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Har kuni kechda darvozalar yopilgach, shahar ko'chalari bo'ylab shabgardlar (*tungi qorovullar*) harakatlabil, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlagan. Shaharni qo'riqlash vazifasi mirshablar zimmasida bo'lgan. Davlatning asosiy ichki va tashqi xavfsizligi masalalarini nazorat qilish, soqchilar va qorovullar boshlig'i qorovulbegiga topshirilgan.

Aksariyat darvozalarning balandligi 11-12 metr, kengligi 14-23 metr, poydevori 1,5 metrni tashkil etgan. Darvoza yuqori qismida 20-31 ta arkadan iborat "gultoj" ham uch qavatlari qorovul-sarbozlar uchun mo'ljallangan ikkita kichik minora 25x25 sm o'lchamdagiga kvadrat obi g'ishtlardan qurilgan. Kuzatuv darchalarining o'lchamlari 150x420 mm ni tashkil etgan. Darvozalar tashqarisida harbiy ma'muriyatlar yoki binolar o'rinni oshgan. Masalan,

Sallaxona darvozasi yonida harbiy kazarma, Samarqand darvozasi tashqarisida harbiy poligon (*mashq maydoni*) joylashgan.

Darvozalar qurilishi darvozaxona, qorovulkxona, navkarxona, nog'oraxona, shinakli kuzatuv joyi, soqchilar xonasasi, kuzatuv minoralari qismalaridan iborat bo'lgan. Darvozaning mazkur qismalarda soqchilar joylashib, biriktirilgan vazifalarni bajargan.

Darvoza temir mixlar bilan yog'on to'sinlar yordamida yaxlit tabaqali qilib ishlangan. Darvozaostonasi tut daraxtidan, tepe to'sinlari gujumdan yasalgan. Shu sababli darvozalar har qanday sharoitda o'z sifatini yo'qotmay, asrlar osha xizmat qilgan.

Darvozalar shaharning muhim strategik nuqtasi hisoblangan. Mozori sharif darvozasi yaqinidan Buxoro shahrining assosiy suv tarmogi i Shaxrud kanali kirib kelgan. Suvni nazorat qilish punkti shu yerda joylashib, uning boshqaruvchisi rais o'rinnbosari yoki xalfa deb nomlangan. Dushman tomonidan suv yo'li to'sib qo'yilmasligi yoki suv zaharlanmasligi uchun qattiq qo'riqlangan. Chunki aksariyat bosqinchilar shaharni hujum qilib qo'liga kirita olmasa, aholini suv zahirasidan ayirish, suvsiz qoldirish orqali mag'lub etgan.

**XX ASR BOSHLARIDA** qizil askarlarning Buxoroga hujumi paytida Qorako'l va Qarshi darvozasi mustahkam mudofaani ta'minlab, bosqinchilarga qarshi uzoq vaqt qarshilik ko'rsatgan. Kogon temiroyl stansiyasidan tushgan qizillar 14 km masofada, qal'a g'arbida joylashgan Qorako'l darvozasiga hujum qilishadi. Bosqinchilar 1-sharqiy musulmonlar otishma polki, otliq polklardan iborat Buxoro askari qarshiligiga uchraydi. Darvoza va qal'a devorlari ustidan olovli to'plar uloqtirilgan. Darvozani qo'liga kirita olmagan bosqinchilar asosiy zarbani Qarshi darvozasiga yo'naltiradi.

Buxoro haqidagi ko'plab tarixiy asarlar, manbalar, ilmiy adabiyotlar, yoki binolar o'rinni oshgan. Masalan,

esdalik va kundaliklar, xarita hamda chizmalarda darvozalar haqida yetarli ma'lumotlar berilgan.

**Masalan, 1812-1813-yillarda O'rta Osiyoga sayohat qilgan hind sayyohi Mirza Izzatullaning kundaliklarida o'z ko'zi bilan Buxoroning 11 ta darvozasini ko'rib, har birini qayd etadi:**

1. Mozor – Bahouddin Naqshband mozoriga chiqib ketilgani uchun Mozor darvozasi deb nomlangan (*sharqiy*).
2. Samarqand (*shimoli-g'arbda*).
3. Imom (*g'arbda, Abu Xafs Kabir qabri uchun*).
4. O'g'lon (*shimolda*).
5. Tallipoch (*shimoli-g'arbda*).
6. Shergiron (*shimoli-g'arbda*).
7. Qorako'l (*g'arbda*).
8. Shayx Jalol (*janubi-g'arbda*).
9. Namozgoh (*janubi-g'arbda*).
10. Sallaxona (*shimoli-g'arbda*).
11. Qavola yoki Qarshi (*shimoli-g'arbda*).

Krestovskiy o'zining "Buxoro amiri qabulida mehmonda" nomli kitobida darvozalarning 2 tasi shimolda, 2 tasi sharqda, 3 tasi janubda, 4 tasi g'arbda joylashganini qayd etadi.

Har bir darvoza ma'lum ma'no va vazifalarga ega bo'lgan. Masalan, Mozori sharif darvozasi – sharofatli mozorga olib boradigan darvoza deb atalgan. Mahalliy aholi uni Dari Mozor yoki Dari mozori Bahouddin deb atashgan. Chunki shu darvozadan chiqib, Qarsi Hinduvon qishlog'ida Bahouddin Naqshband ziyoratgohiga borilgan.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asrda Buxoro shahring ko'plab mukammal topografik xaritalari tuzilgan bo'lib, ularda shahar darvozalari soni, o'mi va nomi aniq ko'rsatilgan. 1911-1912-yillarda Turkiston harbiy batalyonining leytenant Parfenov va kapitan Fenin tomonidan tayyorlangan xaritada Buxoro shahridagi 547 ta topografik punkt va binolar qatorida 11 ta darvoza nomi ko'rsatilgan. 1933-yilda mazkur shahar plani Turkiston harbiy okrugi shtabi tomonidan nashr etilgan. Mazkur muhim ilmiy, amaliy ahamiyatga ega shahar chizmasi hozirda nufuzli muzej fondlari va kutubxonalarida saqlanmoqda.

Bugungi kunga qadar faqat Qorako'l va Tallipoch darvozalari

saqlanib qolgan. So'nggi yillarda Hazrati Imom, Samarqand, Sallaxona va Shayx Jalol darvozalari o'z o'rniда qayta tiklandi.

**Darvozalarning hozirgi kunda shaharning qaysi hududida joylashganini ko'rib chiqsak.**

1. Mozor darvozasi (*saqlanmagan*) – Navoiy nomli 4-maktab qarshisida bo'lgan.

2. Samarqand (*qayta tiklangan*) – Samarqand mavzesida.

3. Hazrati Imom (*qayta tiklangan*) – xalq tilida raymag aylanma yo'li oldida.

4. O'g'lon (*saqlanmagan*) – Ark qal'asidan markaziy dehqon bozori chorrahasiga borish yo'lida.

5. Tallipoch (*saqlangan*) – dehqon bozori avtoturargohining o'ng tomonida.

6. Shergiron (*saqlanmagan*) – "Yog'du" restorani yo'lida, Eski bombez ko'chasi.

7. Qorako'l (*saqlangan*) – "Trikotaj fabrikasi" bekati oldida.

8. Shayx Jalol (*qayta tiklangan*) – Buxoro viloyati shifoxonasi yo'li, "Karavan" kafesi oldida.

9. Namozgoh (*saqlanmagan*) – Turki Jandi mahallasi hududida.

10. Sallaxona (*qayta tiklangan*) – shahar hokimligi va kadastr binolari oralig'ida.

11. Qavola yoki Qarshi (*saqlanmagan*) – shaharning vokzal chorrahasidan Labi Hovuz majmuasiga kirish yo'lida.

## BUXORO DARVOZALARI

xususida shaharning har bir guzarini qadamma-qadam aylangan etnograf olima Olga Aleksandrovna Suxareva, shahar arxitektura yodgorliklarini sinchiklab o'rgangan san'atshunos Lazar Izrailovich Rempel, arxeologlar V. Shishkin, S. Yurenov, o'lkashunos Musojon Saidjonov, Umnyakov asarlaridan ham ko'plab misollar keltirish mumkin.

Muhim tarixiy ahamiyatga ega darvozalar dastlab qizil askarlarning Buxoroga ayoysiz hujumi davrida buzib tashlanadi. Masalan, shaharning Qarshi va Samarqand darvozalari tagiga 800 kg dan ortiq porox ko'milib portlatiladi. 20 kun ichida shaharning yonishi oqibatida Qarshi darvozasi ham yonib kul bo'ladi. Qolgan darvozalar to'plardan o'qqa tutiladi. 1940-yilgacha saqlangan darvozalar keyinchalik sovetlarning turli bahonalari bilan birin-ketib buzib tashlangan. Masalan, shahardagi yirik Hojatbaror qabristoniga tutash Hazrati Imom darvozasi mozordagi ko'plab tarixiy binolar bilan birga yo'qotiladi. Hozirda faqat Tallipoch va Qorako'l darvozalari asl holicha saqlangan xolos.

Buxoro jahonga mashhur shahar. Bejiz Rim tengdoshi, Sharq Venetsiyasi, Sharif shahar nomlari berilmagan. O'rta asrlar muhitini o'zida saqlab qolgan shahar qadimiy mudofaa devori va sharqona darvozalari bilan nafaqat davlatchiligidan tarixida shaharlar qurdati va salohiyatini, balki boy me'morchilik tajribasini namoyon etishi bilan tashrif buyurvuchilarini lol qoldirmoqda.

**Shavkat BOBOJONOV,**  
**Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori**

Askarcha gurung

# IKKI BUYUK SHAXS HAQIDA

## MULOHAZALAR, TAHILLAR



Oddiy askar  
Jonibek  
**TURSUNQULOV**

Oddiy askar  
Hiloliddin  
**NE'MATOV**

Oddiy askar  
Sanjarbek  
**MAMADALIYEV**

Oddiy askar  
Muhammad  
**XUDOYNAZAROV**

Oddiy askar  
Baxtiyor  
**ABDUKARIMOV**

Nukus garnizonidagi eng olis harbiy qismlarning birida askarlar ulug' ajdodlarimiz Zahiriddin Muhammad Bobur hamda so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning hayoti va ularning boy ijodiy merosi haqida so'z ochib, bahslasharkan, o'z bilimlarini zakovat tanlovida sinovdan o'tkazdi. Yoshlar kitob o'qimayapti, deb bong urlayotgan bir zamonda milliy armiyamiz saflarida kitobxon yoshlarning borligi bizni quvontirishi shubhasiz.

**Keling, yaxshisi, ularning fikrlarini o'zingiz ham bir o'qib ko'ring:**

- Kitob – bilim bulog'i, – deya so'z boshladi sirdaryoylik **oddiy askar Jonibek TURSUNQULOV**. – Bu naql ota-bobolarimiz tomonidan bejiz aytilmagan. Inson ulg'ayib borarkan, ilmsiz hech narsaga erisha olmasligini anglab yetadi. Bolaligimdan kitob o'qishga juda qiziqaman, tarixiy asarlar, detektiv, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan kitoblar mutolaasi menga zavq bag'ishlaydi. Armiyaga kelmasimdan burun harbiy qismida ham kitoblar bo'ladi, deyishsa, hech tasavvur qilolmasdim. Buni qarang, xizmatimiz tugashiga ham oz qoldi, men esa kichkinagini kutubxonamizdagi nodir asarlarning deyarli barchasini o'qib chiqdim. Yaqinda Bobur tavalludiga bag'ishlangan tanlovida qatnashib, faxrli o'rinni egalladim. Bunda albatta tarix fanidan olgan bilimlarim asqatdi. Tarixiy sarkardalar, jumladan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Najmuddin Kubro, Muqanna, Bobur men uchun etalon bo'lgan buyuk shaxslar sanaladi. Ular orasida Bobur nafaqat shoh, balki shoir va harbiy sarkarda sifatida dunyo tarixida o'chmas iz qoldirdi. U umri davomida ko'p janglarni

boshdan o'tkazdi, bugungi zamonaviy armiyamizning barpo etilishida sarkardaning harbiy strategiyaga qo'shgan hissasi beqiyos.

Samarqandlik **oddiy askar Hiloliddin NE'MATOV** ham safdoshining fikriga qo'shimcha qilib bilimlarini o'rtoqlasharkan, shunday deydi:

- Askar bo'lib, ajdodlarga munosib avlod bo'lmog'im kerakligini yanada teran angladim. Harbiy qismga kelgan kunitdan boshlab ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlaridan saboq oldim. Mashg'ulot davomida sarkardalar haqida alohida mavzular o'tildi. Bobur haqida kitoblar o'qigan bo'lishimga qaramasdan, bu yerda uni kuchli iroda, sabot va matonat timsoli sifatida qaytadan kashf etdim. Badiiy adabiyot maydonida u nafaqat asarlar yaratib o'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shdi, balki jahonda O'zbekiston nomini dunyoga tanitdi. Ikki xalq, ikki millatning o'rtaida do'stlik rishtalarini bog'ladi. Biz uchun ulug' ajdodlarimiz qoldirgan meros faxr-u g'urur bag'ishlabgina qolmay, ularning izidan bormoqlikka chorlaydi. Harbiy xizmatidan so'ng tarix yo'nalishida oliy ta'lim muassasasida o'qib, ona

Vatanimizga xizmat qilishdek vazifani davom ettirmoqchiman.

**Oddiy askar Sanjarbek MAMADALIYEV** esa do'stlari orasida ko'kragini kerib, Bobur tug'ilib o'sgan yurtning farzandi ekanini g'ururlanib so'zлади.

- Hindiston sari yuzlangan bobomiz qayerda tug'ilganini mana mendan so'rang. Andijonda tug'ilib voyaga yetgan, butun umri davomida vodiyning tilyorar qovunini qo'msab, Vatan sog'inchi ila yashagan. Sog'inch uni shohasarlar yaratishga chorladi. Bilasizmi, men Namanganning qadim xaroba shaharlaridan biri Axsikentga yaqin joyda yashayman. "Boburnoma"ni o'qiy turib, shunday jumlalarga ko'zim tushdi: "...Farg'onada Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yo'qtur... Umarshayx Mirzo muni poytaxt qilib edi..." Bolaligim o'tgan Axsikentda. U ilgari o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rinni tutgan makonlardan biri bo'lgani bilan meni lol qoldirdi. Bobur uni o'z asarida alohida ta'riflagan. Qarang, bu menga qanchalar katta kuch berdi. Boburga munosib izdosh bo'lmogni niyat qildim.

- Ota-onamdan ming chaqirimcha olisda, harbiy xizmatdaman, – deydi Surxondaryoning Qo'hitog'lari

orasida ulg'ayib voyaga yetgan

**oddiy askar Muhammad XUDOYNAZAROV**. – Bundan bir necha oyalar avval sog'inch o'rtab uyga ketgim kelgan. Qoraqalpog'istonning jazirama issiqlarida navbatchilik qilish onas emas, qish kunida postda turgan askargina keng sahroning izg'irinini his etmay qolmaydi. Ana o'shanda menga haqiqiy do'stlik "qo'lini cho'zgan" kitob bo'ldi. "Yulduzli tunlar" asarini o'qiy turib, Boburning boshdan kechirgan og'ir va mashaqqatli kunlarini his etdim. Xiyonat, razolat, omadsizlik – hech biri Boburni chetlab o'tmadı. Shunda ham u faqat va faqat olg'a intilib, buyuk Boburiylar sulolasiga asos sola bildi. Qisqa hayot kechirgan bo'lishiga qaramay, undan muzaaffariyatlarga to'la janglar, harbiy taktika, ajoyib sog'inch va muhabbatga limmolim ijod qoldi. O'tmish menga saboq berdi, armiya sabrimni sinadi va tobladi. Ajdodlarga munosib voris bo'lib, ular bizga qoldirgan meros – Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilaman!

Askarlar orasida kitobxonligi, she'rlar mashq qilishi, davralarni qizdirishi bilan ajralib turadigan **oddiy askar Baxtiyor ABDUKARIMOV** ham sarkardaning zafariyotlari haqida gapira turib, shoirlar ham so'z orqali Vataniga bo'lgan

cheksiz mehr-u muhabbatini izhor eta olishlarini bildirib o'tdi. Xususan, Navoiy ijodi haqida to'xtalarkan, she'riyatida vatanzarlik g'oyalari keng o'rin olganini alohida ta'kidladi:

– "Temur tig'i yetmagan joyni, qalam bilan oldi Alisher", deya yozib qoldirgan edi taniqli shoirimiz Abdulla Oripov. Darhaqiqat, Navoiy shunday bir komil inson bo'lganki, uning asarlari faqat ezgulik va komillik sari yetaklaydi insonni. Shoir har bir insonni el-yurt xizmatida bo'lischdek sharafli va mas'uliyatli bo'lishga undaydi, xalq manfaatlari har narsadan ustunligini ta'kidlaydi, insoniylik fazilatlarini yuqori darajaga ko'taradi. Har birimiz Navoiyni faqat tavallud kuni arafasida emas, balki doimiy ravishda o'qib-o'rganishimiz zarur.

Ajabo! Askarlar bilan kechgan qizg'in suhbat ana shunday fikrlar og'ushida mazmunli bo'ldi. Yosh kitobxon yigitlarga omad va zafarlar tilab qolamiz. Buyuk ajdodlarimiz singari dunyo tanigan er yigitlar safida bo'lsinlar!

**Shohista ABDURAHMONOVA**  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

# HARBIY-VATANPARVARLIK

## TADBIRLARI

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan, respublika ishchi guruhi joriy yilning 20-yanvar kunidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahallalarida aholi muammolarini o'rghanish va hal etish, bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, xorijdagi mehnat muhojirlari bilan manzilli ishslash kabi yo'naliishlarda o'z faoliyatini boshladi.



Ushbu qaror ijrosini ta'minlash hamda aholiga xush kayfiyat ulashish maqsadida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan Xorazm viloyatining Xiva va Gurlan tumanlarida harbiylar ishtirokida harbiy-vatanparvarlik tadbirlari tashkil etildi.

Xiva tumani markazida erta tongdan harbiy orkestr kuylari jo'rligida yosh-u qari davlatimiz bayrog'ini baland ko'tarib, "Sog'lom hayot uchun 5 000 qadam" ommaviy yurish marafonida birdamlikda ishtirok etdi. Sog'lomlashtirish aksiyasida yuzlab vatandoshlarimiz sog'lom turmush tarzini tanlaganini targ'ib etib, barchani ushbu tadbirda faol ishtirok etishga chaqirdi.

Shundan so'ng tadbirlar Xivadagi Prezident maktabi hamda boshqa ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik ruhidagi yoshlar festivaliga ulandi. Unda tuman hokimligi, Yoshlar ittifoqi, Yoshlar ishlari agentligi, Xorazm viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi, tuman mudofaa ishlari bo'limlari vakillari, bir guruh harbiy xizmatchilar, 500 ga yaqin yosh, maktablarda faoliyat yuritayotgan "Vatan tayanchi" otryadi a'zolari va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari ishtirok etdi.

Tadbirda so'z organlar harbiy sohaning mashaqqatlari va sharafli jihatlari haqida gapirib, globalashuv jarayonlari hamda

odamlar, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o'rni va ahamiyatini ta'kidlab o'tdi.

Milliy armiyamizda olib borilayotgan islohotlarning samarali natijasi sifatida bugun O'zbekiston jahon arenasida qudratli jangovar kuchga ega milliy armiyasiga ega bo'lgan mamlakatlardan biriga aylangani alohida e'tirof etildi. Kelgusida harbiy xizmatchi bo'lish istagidagi yoshlar uchun davlatimizda faoliyat yuritayotgan harbiy ta'lim muassasalari haqida ma'lumotlar berilib, o'qishga kirish tartibi hamda ta'lim

yo'naliishlari haqida so'z bordi. Harbiy sohaga qiziqish bildirgan yoshlarning savollariga batafsil javob berildi.

Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazi harbiy orkestri jamoasining Vatan madhini tarannum etgan kuy va qo'shiqlari, faxriy qoruluv vazvodining saf elementlari bilan ko'rgazmali chiqishlari tadbirga haqiqiy vatanparvarlik kayfiyatini ulashdi.

Gurlan tumanida ham yoshlarni jalb etgan holda xuddi shu mazmunda harbiy-vatanparvarlik festivali o'tkazildi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

Armiya prokuraturasi

So'ragan edingiz

Vatanparvarlik

Kelajagimiz egalari

## O'RGANISHLAR OLIB BORILDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan joylarga chiqqan holda harbiy qism va muassasalarda o'rganishlar olib borilmoqda.

Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida harbiy tuzilmalarda harbiy xizmatni o'tash uchun yaratilgan sharoitlar, energiya resurslarini iqtisod qilish, energotejamkorlikni ta'minlash va faoliyatga doir boshqa masalalarga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilar va xodimlar hamda ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini ta'minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi tadbirlar natijalari o'rganilib, yakuni bo'yicha va jamiyatda huquqbazarliklarning oldini olish ishlardira yanada faol bo'lish yuzasidan mas'ullarga tavsiya va ko'rsatmalar berib o'tildi.

Shu bilan birga, shaxsiy tarkib bilan ochiq muloqotlar uyshtirilib, yangi qonunlar, shu jumladan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun mazmun-mohiyati yetkazildi.

Bu boradagi amaliy tadbirlar davom etmoqda.

**Adliya polkovnigi  
Sherzod SAIDOV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy prokurorining  
katta yordamchisi**

## Huquqiy maslahat



**Savol:** Men kontrakt bo'yicha harbiy xizmatdan zaxiraga bo'shatildim. Harbiy xizmatga kirgunimga qadar ishlagan ish joyimda ishlashim mumkinmi?

**Javob:** Harbiy xizmatga chaqirilgan (kirgan) xodim zaxiraga bo'shatilganidan yoki iste'foga chiqarilganidan keyin, agar u ishga joylashish masalasi bo'yicha ish beruvchiga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidan, Ichki ishlardan vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi qo'shinlaridan bo'shatilgan kundan e'tiboran uch oydan kechiktirmay murojaat qilgan bo'lsa, avvalgi ish joyida ishga joylashishda ustuvor huquqqa ega bo'ladi.

Xodimlarga ushbu kafolatni berish imkonni bo'lмаган hollarda mahalliy mehnat organi ularni ishga joylashtirishni, zarur bo'lganda esa ularni kasbga bepul tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlaydi.

**O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy prokuraturasi  
axborot xizmati**

## TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA

Farg'onha harbiy prokururasi tomonidan harbiy tuzilmalar hamkorligida Rishton tumanining chegaraoldi hududida joylashgan mahallalar yoshlari ishtirotida vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

1-sonli politexnikumda o'tkazilgan tadbirda mamlakatimizda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar haqida so'z bordi. Vatan haqidagi kuy-qo'shiqlar hamda harbiy xizmatchilarning qo'ljangi ko'rgazmali chiqishlari va aslahalar namoyishi barchada katta taassurot goldirdi.

Shuningdek, Farg'onha harbiy sudi hamkorligida viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi shaxsiga tarkibi bilan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan o'quv-seminar tashkil etildi.

Shu bilan birga, Yozyovon tumanida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi. Unda harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari ishtirot etdi. Jarayonda 18 ta murojaatdan 3 tasi joyida ijobji hal etildi, 15 tasiga huquqiy tushuntirish berildi.

**Adliya podpolkovnigi  
Oybek SHARIPOV,  
Farg'onha harbiy  
prokurorining o'rinnbosari**

## MA'NAVIY QADRIYAT

Toshkent harbiy prokururasi tomonidan kuch tuzilmalari hamkorligida Toshkent viloyatining chegaraoldi Susam, Go'shsoy, Sanam, Lashkarak va Nishbosh mahallalari yoshlari ishtirotida vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Unda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar, vatanparvarlik va harbiy xizmat mavzularida so'z bordi.

Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar yoshlardagi vatanparvarlik tuyg'usini yanada yuksaltirgan bo'lsa, Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining ko'rgazmali qo'ljangi chiqishlari sohaga bo'lgan ishtiyolarini oshirdi. Vatanparvarlik tadbiri davomida faol qatnashgan yoshlarga faxriy yorliq va esdalik sovg'alar topshirildi.

Tadbir prokurorlik soatlariga ulanib ketdi. Jumladan, Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi va olis hududlardagi umumta'lum maktablari o'quvchilari ishtirotida "Vatanparvarlik - ma'naviy qadriyat" mavzusida mashg'ulotlar tashkil etildi.

**Adliya mayori  
Sardorxo'ja ABROROV,  
Toshkent harbiy prokurorining  
katta yordamchisi**

Xalqaro hamkorlik

## GERMANIYA DELEGATSIYASI "VATANPARVAR" TASHKILOTIDA

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi kengashida Germaniya Federativ Respublikasining "SEIT for tomorrow GmbH" kompaniyasi rahbari Nils Gerdemann boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



"Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov moderatorligida o'tgan ushbu tadbirda xorijda vaqtincha ishlash istagida bo'lgan mamlakatimiz fuqarolarini "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida avtobus va yuk tashuvchi avtotransport vositalari haydovchiligi bo'yicha o'qitib, Germaniyaga yuborish masalalari muhokama qilindi.

Tadbir davomida delegatsiya rahbari Nils Gerdemann bundan bir kun avval "Vatanparvar" tashkilotining Buxoro shahri o'quv sport-teknika klubining avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kursi faoliyati bilan tanishgani va u yerda Germaniyada ishlash istagida bo'lgan 50 dan ortiq fuqaro bilan suhbatlashganini bildirdi. "Bu fuqarolardan 31 nafarining haydovchilik ko'nikmasi va nemis tilini bilish darajasi bizga ma'qul keldi. 16 nafarini bizning yurtimizga yuborish uchun

hujjatlarini tayyorlashga kirishdik, qolgan 15 tasini haydovchilik kursini yakunlaganlaridan so'ng olib ketishni rejalashtiriyapmiz", dedi u jumladan Nils Gerdemann O'zbekistonga kelgusi safari doirasida tashkilotning Xorazm viloyatidagi o'quv muassasalarini faoliyati bilan tanishish niyati borligini bildirdi. So'zi yakunida u Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi, "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi va o'zi rahbarlik qilayotgan kompaniya o'rtaida uch tomonlarga memorandum tuzish taklifi ilgari surdi.

O'z navbatida, Husan Botirov nemis delegatsiyasi rahbarining barcha takliflari inobatga olinishini, tashkilotlar o'rtasida yo'nga qo'yilayotgan ushbu hamkorlik ikki mamlakat iqtisodiyoti uchun manfaatlil ekanini qayd etdi.

## "ProTruckDriver" vakillari mehmonimiz



Litva Respublikasining "ProTruckDriver" tashkiloti vakillaridan iborat delegatsiya O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti faoliyati bilan tanishdi.

Xususan, ular tashkilotning Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi Chilonzor tumani o'quv sport-teknika klubida bo'lib, u yerdagi avtomototransport vositalari haydovchilarini

tayyorlash kursining o'quv moddiytexnik negizi bilan tanishdi va "D", "CE" toifali haydovchilarini tayyorlab, Yevropa mamlakatlariga ishlash uchun yuborish imkoniyatini o'rgandi.

Tomonlar yaqin kunlarda "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida haydovchilik bo'yicha tahsil olayotgan fuqarolarni "Kod 95" guvohnomasiga bo'yicha o'qitishni boshlash masalalarini muhokama qildi.

"Kod 95" bu Yevropa Ittifoqida yuk mashinalari va avtobuslar haydovchilarini sifatida ishlash istagida bo'lgan odamlar o'qib ega bo'lishi majburiy bo'lgan sertifikatdir. U haydovchilik kasbini to'liq o'zlashtirish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilish, aholiga sifatlari xizmat ko'rsatish kabi Yevropa Ittifoqining umumiy standartlarini belgilab beruvchi kasbiy malaka sertifikati hisoblanadi.

Ogohlik

# GAZSO'RГ‘ICH MOSLAMASI



## HAYOT UCHUN KAVFI!



Gazso'rg'ich moslamalarining xonadonlar uchun xayfi

**Gazso'rgich moslamalarining xonadonlar uchun xavf**  
Xonadonlarda nostandard gaz uskunlari va gazso'rgichlar o'rnatilganda tabiiy gazning sizib chiqishi oqibatida xonada gugurt chaqilishi yoki yoritish tizimi yoqilganda gaz va havo aralashmasining chaqnashi sodir bo'ladi. Qolaversa, chaqnash oqibatida yong'in yuzaga kelib, havot uchun xavf tug'dirishi mumkin.

**Gazso‘rg‘ichlardan foydalanishning salbiy oqibatlari**

Gaz va havo aralashmasining chaqinashi fuqarolarning turli darajadagi kuyish, tan jarohati va hayotdan ko'z yushman gacha bo'lgan ko'plab ayanchli oqibatlarga sabab bo'ladi.

O'ylamasdan qilingan harakat natijasida o'zining va o'zgalarning hayotiga xavf tug'dirib, qolaversa tabiiy gaz me'yordan ortiq ishlatalib, boshqa xonadonlarga gazning yetib borishi qivinlashadi.

**Oonun oldida javobgarlik**

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 101-moddasi. Elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalari buzish.

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ularish yoki ulardan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gazni hisobga olish asboblariga, shu jumladan ularning "plomba"lariga qasddan shikast yetkazish yoki bunday hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yigirma baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Mudofaa vazirligi Yon'in xavfsizligi xizmati gaz iste'molchilaridan ogoh bo'lishni, xonardonalaridagi barcha gaz uskunalaridan yo'riqnomalarini va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilgan holda foydalanishni so'raydi.

Hurmatli harbiy xizmatchilar! Qish mavsumini betalafot o'tkazing!  
Xonadoningizni vong'in ya gaz xayfidan asrang!

**Podpolkovnik O'. XAITOV,  
TOQQQ Yong'in xavfsizligi  
xizmati boshlig'i**

Mudofagaga ko'maklashuvchi "Yatnparvar" tashkilotlarida

# YOSHLAR FAOLIYATIGA E'TIBOR

Ayni paytda  
O'zbekiston  
Respublikasi  
mudofaasiga  
ko'maklashuvchi  
“Vatanparvar”  
tashkilotining  
Xorazm viloyati  
kengashi  
tasarrufidagi  
“Xiva-karvon”  
o'quv sport-  
texnika klubi  
jamoasi tomonidan  
yoshlarni harbiy-  
vatanparvarlik  
ruhidha tarbiyalash,  
ularni sportning  
texnik va amaliy  
turlariga jalb etish  
hamda ommaviy  
kasb xodimlarini  
tayyorlash  
borasida salmoqli  
ishlar amalga  
oshirilmoqda.



Jumladan, bugungi kun talablari asosida haydovchilarni tayyorlashga muhim e'tibor qaratayotgan klub jamoasining bu boradagi ishlari e'tiborga molikdir. Xususan, malakali haydovchilar tayyorlash sifatini oshirish, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish borasida yaxshi natijalarga erishilmoqda. Belgilangan "B", "BC" toifalari haydovchilar tayyorlash hamda "C", "E" toifalarga qayta tayyorlash borasidagi ishlar o'z samarasini bermodda

Bundan tashqari, O'STK jamoasi yosh avlod qalbida ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish ularni har

tomonlama yetuk va barkamol qilib voyaga yetkazish maqsadida yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiyani yuqori saviyada tashkil etish hamda uni amalga oshirish borasida targ'ibot-tashviqot yuritish tadbiralarini ham muntazam ravishda olib bormoqda.

nam muntazam ravisnda olib bormoqda.

- Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida o'tkazilgan tadbirilar shular jumlasidandir, - deydi O'STK boshlig'i Alliyor Taishev. Xiva shahri mudofaa

ishlari, maktabgacha va mактаб та'лими бо'лимлари hamda IIB YХ bo'linmasи bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan tadbirlar ham ana shu muhim sanaga bag'ishlanmoqda. Shuningdek, yoshlarning jismoniy faolligini oshirish maqsadida ularga sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan. Shu kunlarda klubda faoliyat yuritayotgan "Havo miltig"idan o'q otish", "Yozgi biathlon" kabi seksiya va to'garaklarga 36 nafarga yaqin ijtidorli yosh jalb etilgan.

Akbar ALLAMUBODOV

Chaqiruv – 2025



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chiqiruv hamda belgilangan xizmat muddatini o'tab bo'lgan muddatli

harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida chiqiruv jarayonlarini o'tkazish bilan bog'liq tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etishga bag'ishlangan mashg'ulot bo'lib o'tdi.

Mudofaa ishlari boshqarmasida o'tkazilgan hamda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni rahbarlik qilgan mazkur tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining rahbariyat kengashi, harbiy-tibbiy, hududiy tibbiy, hududiy butlash komissiyalari a'zolari, mudofaa ishlari boshqarma va bo'limalari mutaxassislari ishtirok etdi.

Mashg'ulotda 2025-yilda muddatli harbiy xizmatga chiqiruv tadbirlarini Mudofaa vazirligi "Avtomatlashtirilgan axborot tizimi va ma'lumotlar bazasi"ning "Chaqiruv" tizimosti dasturi orqali o'z vaqtida sifatli tashkil etish va o'tkazish masalalari yuzasidan tegishli ko'rsatma hamda tavsiyalar berildi.

Qarorda belgilangan vazifalarga ko'ra, yig'ilish davomida tibbiy komissiyalar faoliyatini raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda o'tkazish tartibi bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalar oshirildi.

Yakunda har bir yig'in ishtiroychisining "Chaqiruv" tizimosti dasturidan foydalanish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlari sinovdan o'tkazildi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

Armiya va yoshlar



O'sib kelayotgan yosh avlodni Vatanga sadoqat va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ayniqsa o'g'lonlarimiz qalbida jasorat, mardlik va shijoat kabi fazilatlarni shakllantirish, shuning bilan bir qatorda ularda harbiylikdek sharafla va mas'uliyatli kasbga qiziqish uyg'otish maqsadida harbiy qism va muassasalarda turli tadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda ochiq eshiklar kuni tashkil etilmoqda.

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 225-umumta'lim maktabi o'quvchilarining Qurolli Kuchlar akademiyasiga borgani ham shunday ezgu maqsadga xizmat qilgani bilan ahamiyatlidir.

Ekskursiya avvalida o'quvchilarini kutib olgan oly harbiy ta'lim muassasasi mas'ullari tug'ilib o'sgan Vatanini ko'z qorachig'idek asrash va uni mardlarcha himoya qilishga har bir yigit haqli ekani, agar biror bir mamlakatda tinchlik va osoyishtalik bo'lmasa, u yerda hech qachon gullab-yashnash, rivojlanish va farovon turmush bo'lmasligini, shunday ekan, mana shunday muqaddas vazifani mardonavor ado etayotgan asl yurt o'g'lonlari doim el



ardog'ida bo'lishini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, ular Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, harbiylikning nufuzi, yurtimizdag'i oly harbiy ta'lim muassasalarini va ularga o'qishga kirish tartiblari xususida ham o'quvchilarga batafsil ma'lumot berdi.

Shu kuni mehnmonlar oly harbiy ta'lim muassasasida tashkil qilingan muzey, sport kompleksi, kutubxona, otish trenajori bo'ylab sayohat qildi, kursantlarga ta'lim-tarbiya berish uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi va ular bilan muloqot qilib, o'zlarini qiziqitrgan barcha savollarga javob oldi.

Bir so'z bilan aytganda, ochiq eshiklar kuni yoshlarda harbiylikka katta qiziqish uyg'otib, ulkan taassurot qoldirdi. Chunki juda ko'p yigitlar qalbida o'z kelajagini harbiy soha bilan bog'lash istagi paydo bo'lganini faxrlanib oshkor qildi.

**Podpolkovnik Jamshid MARDIYEV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
o'qituvchisi**

Ishchi guruh faoliyati

## Qatag'on qurbanlari xotirasini abadiylashtirish yo'lida

Qalblarda milliy qadriyatlar ruhi, millat tamadduniga daxldorlik, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg'usini har tomonlama kuchaytirish, qatag'on qurbanlardan qolgan boy merosni, harbiy jadidlar tarixini o'rganish va uni targ'ib qilish eng muhim masalalardan.

Vatanimiz ozodligi yo'lida mardona kurash olib borib matonat ko'rsatgan, mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan ajodolarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni samarali tashkil etish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada Prezidentimizning tegishli farmoyishi bilan respublika ishchi guruhi tuzilib, ular o'z faoliyatini olib bormoqda.


Mazkur yo'nalishda Mudofaa vazirligi, Qatag'on qurbanlari xotirasi davlat muzeysi va O'zarxiv agentligi bilan hamkorlikda davlat arxivlarida saqlanayotgan qatag'on qurbanlari hamda jadidchilik harakati namoyandalariga oid muayyan arxiv hujjalari chuqur o'rganilyapti. Ma'lumotlarga ko'ra, jadidchilik harakati tarkibida 100 nafardan ortiq harbiy bo'lgan. Ular o'z davrida harbiy bo'limalarni tuzish, qo'shinlarda yangicha qarashlarni, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirishga harakat qilgan.

Hozirgi vaqtida ishchi guruh tarkibida bo'lgan harbiy xizmatchilar tomonidan qatag'on bo'lgan harbiyalar to'g'risida ko'plab ilmiy loyihibar, publisistik va badiiy nashrilar chop etilib, ular qoldirgan boy merosni o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan ilmiy tadqiqot, badiiy va hujjalri asarlar yaratish ishlari ham davom ettirilmoqda.

Ahamiyatlisi, harbiy jadidlarning o'z davrida amalga oshirgan harakatlarini ko'rsatgan jasoratini bugun tarixiy dalillar asosida zamondoshlar xotirasiga mustahkamlash va imkon qadar keng ommaga, ayniqsa yosh avlodga yetkazish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Umuman, mazkur yo'nalishdagi izlanishlar e'tiborga molik.

Albatta, xalq ozodligi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan har bir yurtdoshimizning nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirishdek mas'uliyatlari ish barchamizning fuqarolik burchimizdir. Zero qatag'on qurbanlari bo'lgan ajodolarimiz xotirasini e'zozlash kabi ezgu ishlar yosh avlodni yurtga muhabbat va sadoqat tuyg'ulari bilan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

**Sherali ESHPO'LATOV**



**Alisher Navoiy va Mirzo Bobur. Bu ikki ulug' insonni bog'lab turadigan jihatlar ko'p. Garchi ular hayotda bir-biri bilan uchrashmagan bo'lsa-da, bitta davning vakili, bitta adabiyotning mustahkam ustunlari bo'lgan. Hazrat Navoiy vafot etganida Bobur hali 18 yoshga to'lmanan yigit edi. Shunday bo'lsa-da, u allaqachon taxtga o'tirib, mamlakatni boshqargan, Samarqandni ikki marotaba qo'nga kiritgan. Navoiy Bobur haqida eshitgan-bilgan bo'lishi mumkin. Ammo Navoiy asarlarida Bobur nomini uchratmaymiz. Lekin "Boburnoma" asarida muallif Navoiy nomini 16 marta tilga olgan.**

Bobur o'ziga ustoz deb bilgan Navoiy ijodini chuqur ixlos bilan o'rgangan, ko'pgina g'azallarini yod olgan. "Boburnoma"ning 1499-1500-yillarga bag'ishlangan bobida ruhiyatida vujudga kelgan bezovtalik haqida bunday yozadi: "Gohi telbalardek yolg'uz pushta va dashtqa borur edim. Gohi bog'ot va mahallotni ko'cha-bako'cha axtarur edim. Ne yurumoqta ixtiyorim bor edi, ne o'turmoqta, ne bormoqta qarorim bor edi, ne turmoqta".

Bunday holatni Navoiy o'zining "Navodir ush-shabob" devoni dagi (385-raqamli) g'azalning uchinchi baytida shunday izohlagan edi:

Ne borurg'a quvvatim bor, ne turarg'a toqatim,  
Bizni bu holatqa sen qilding giriftor,  
ey ko'ngul.

Bobur bu yerda ruhiyatiga mos kelgan baytni eslagani uning bu g'azalni to'liq yod olganini bildiradi. Bobur Navoiy ijodini chuqur bilgani uning lirkasida ham aks etgan:

Oshiq o'lg'och ko'rдум ul shamshod  
qaddin yuz balo,  
Olloh, Olloh, ishq aro mundoq balolar  
bor emish.

Bobur g'azalidagi ikkinchi misra tazmin san'ati asosida Navoiyning quyidagi baytidan olingen:

Oshiq o'ldim, bilmadim, yor o'zgalarga  
yor emish,  
Olloh, Olloh, ishq aro mundoq balolar  
bor emish.

Ma'lumki, Navoiyning ko'pgina g'azallari aniq bir mavzuga bag'ishlangan va ular kompozitsion jihatdan yaxlit. Shoiring ushbu g'azali voqeabandlikqa qurilgan. Bobur ijodida ham Navoiy she'rlari ta'sirida yozilgan bunday g'azallar ko'plab topiladi.

Navoiy g'azallari mavzu va mazmun e'tibori, voqeabandlik darajasiga ko'ra har xil. Bobur g'azallari xususida ham shunday deyish mumkin.

Ha, darvoqe, Navoiy ijodi nafaqat betakrorligi, balki buyuk kashfiyotlar haqida so'z ochgani bilan ham qimmatlidir. Masalan, ma'lumotlarga ko'ra, sharqshunos

Bertels 1948-yilda e'lon qilingan "Navoiy" nomli monografiyasida eskalator va avtomobil Navoiy kashfiyoti ekanini ta'kidlagan ekan. Jumladan, "Sab'ayi sayyor" dostonida podshoh Zayd uchun yasalgan oltin taxting zinalari o'ziyur bo'lib, hukmdorni taxtga olib chiqib qo'yadi.

"Farhod va Shirin" dostonida xohlagan odamni xohlagan vaqtida ko'rsata oladigan bugungi televizorning ilk asoslari haqida aytildi.

Asarda robotga doya bo'lgan temir odamlar haqida ham so'z bor.

Navoiy osmonidan yerni kuzatuvchi qurilma - bugungi NUJ, ya'ni noma'lum uchar jismlar haqida fikr bildirgan. Yana "Saddi Iskandariy"da shaffof kemasida suvosti hayotini o'rgangan hukmdor tasvirlanadi...

Yugoroda "Boburnoma"da Navoiy nomi o'n olti marotaba tilga olinganini aytidik. Masalan, unda Navoiyning vafoti haqida shunday ma'lumot uchraydi: "Sulton Husayn mirzo Astrobod cherikidin yong'onda istiqbolg'a keldi, mirzo bila ko'rushub qo'pquncha, bir holati bo'ldi, qo'polmadi. Bu dard ilaki o'larmen, maroz chu zohir emas, tabiblar bu balog'a ne chora qilg'oylar". Bobur aytgan ushbu noxush hodisa 1501-yilning 2-yanvar kuni ro'y bergandi. Ma'lumki, 1500-yilning yozida Husayn Boyqaro Astrobodda isyon ko'targan Muhammad Husaynga qarshi qo'shin tortadi. Biroq o'sha yilning dekabr oyida ota va o'g'il o'rtasida sulk tuzilib, shoh poytaxtga qaytayotgani haqida xabar keladi.

Odat bo'yicha, Navoiy shahrining bir qator ko'zga ko'ringan kishilarini bilan shohni kutib olish uchun yo'lda chiqadi. Bu tarixiy voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan tarixchi Xondamir bu voqeani shunday izohlaydi: "Bir farsaxga yaqin yurganda sohibqironning dabdabali va ko'rkan mahofasi ko'rindi. Shu fursatda, xudoning taqdri bilan, u zotning (Navoiyning) muborak boshi aylanib qoldi. Oliyjanob (Navoiy) Amir Xoja Shihobiddin Abdulloni o'z yaqiniga chaqirib, "meni saqlashdan g'ofil bo'lman, ahvolim o'zgarib qoldi", dedi.



Shu paytda a'lo hazratning (Boyqaroning) qo'lini o'pishga yetishmoq uchun otdan tushdi. To'satdan yetishgan kasallikning og'irligi haddi a'losiga borib qolgan va yurishga mador qolmaganidan, mazkur amir va Mavlono Jaloliddin Qosim qo'ltiqlariga kirib, shu yo'sinda ilgari yurib, boshini baland darajali podsho quchog'iga qo'ya oldi. Shu onda bu yuksak kasal saktaga aylanib, oliy nasabli Amirda qaytib harakat qilish va so'zlashga majol qolmadi".

Shu ahvoldagi shoirni yarim tunda o'z uyiga olib keladilar: erta bilan shaharning taniqli tabiblari to'planib, qon olishga harakat qiladilar, ammo hech qanday ijobiy o'zgarish bo'lmaydi. Navoiy 1501-yil 3-yanvarda hayotdan ko'z yumadi. Shoир jasadi uning o'zi tomonidan qurilgan Masjidi jome gumbazi ostiga qo'yildi.

G. HOJIMURODOVA tayyorladi.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahriri yati bilan bog'lanish uchun telegram bot



**BIZ HAQIMIZDA**

## VATANPARVAR



MUASSIS  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi

Tahririyat kengashi:  
general-major Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabeck Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahilafalandi.

**Bosh muharrir:**  
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingen.

**Telefonlar:**  
kotibiyat: 55 511-25-91  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-90



www.mv-vatanparvar.uz  
vatanparvar-bt@mail.uz

**Navbatchi:** katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov  
**Sahifalovchi:** Dilnoza Meliqo'ziyeva  
**Musahih:** Mastura Qurbanova

Buyurtma: V-5901  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 073 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan.

Nashri ko'satkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya